Ilm talab qiladigan texnologiyalarning eng muhim xususiyati ularning kadrlar bilan ta'minlanishidir. Bunday texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish hayot tsiklining barcha bosqichlarida oliy ma'lumotli mutaxassislarni talab qiladi. Deyarli barcha mutaxassislar, jumladan, mexanizatorlar va operatorlar ham oliy ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bu ko'plab Yaponiya, Amerika va G'arbiy Yevropa firmalari misolida yaqqol ko'rindi.

Shunday qilib, mashinasozlik texnologiyasi o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga – yangi ilmni talab qiluvchi texnologiyalarga yaqinlashdi, ularni amalga oshirish mashinasozlarga raqobatbardosh mahsulotlar yaratish imkonini beradi.



**2.2-rasm. Materialarga ishlov berishda ilmga boy raqobatbardosh  
texnologiyalar bazasi**

### Nazorat savollari

1. *Ilmiy tadqiqot uchun raqobatbardosh texnologiyalar nima?*
2. *Ilmiy tadqiqotlarni texnik qo'llab-quvvatlash nimadan iborat?*
3. *Mashinasozlikda ilmga boy yo'nallishlar qaysilar?*
4. *Texnologik jarayon nima?*

5. *Zamonaviy texnologik jarayonlarga qaysi jarayonlarni misol qilsa bo'ladi?*
6. *Ekologik yo'naltirilgan ishchi jarayon nima?*
7. *Progressiv uskunalar va texnologik ta'minot vositalari nima?*

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. А.Г. Суслов, А.М. Далский. (2002). Научные основы технологии машиностроения. Машиностроение, Москва, 689с.
2. Davim J.P., Jackson M.J. Production technology. Nova Science Publishers, Inc., 2011. <http://www.twirpx.com/file/1472025/>
3. Суслов А.Г. Технология машиностроения - М: Машиностроение. 2018.
4. Базров Б.М. Основы технологии машиностроения – М: Машиностроение, 2005.-736 с.
5. Проектирование технологии автоматизированного машиностроения. Под ред. Соломенсова Ю.М. М.: «Высшая школа», 1999.

### **3-mavzu: Mashinasozlik ishlab chiqarishda zamonaviy, avtomatlashtirilgan texnologik jihozlar.**

*Reja:*

1. *RDB stanoklarning konstruktiv elementlari*
2. *Teskari aloqa datchiklari*
3. *Qadamli elektr dvigateli*
4. *Asboblarni avtomatik almashadirish qurilmalari*

#### **2.1. RDB stanoklarning konstruktiv elementlari.**

RDB stanoklarning asosiy bazaviy uzellari yuqori aniqlikda, bikrlik, titrashga bardoshli, ishonchli qilib tayyorlanadi, chunki ular qimmatbaho avtomatlashtirilgan jihozlar bo‘lib, sutkada ikki va undan ortiq smenada ishlashi talab etiladi.

*Staninalar.* RDB stanoklarning staninalari asosiy bazaviy element hisoblanadi, chunki ularda stanok yo‘naltiruvchilari joylashtiriladi. Staninalarning quyidagi turlari uchraydi.


1. Cho‘yan staninalar, toblangan va jilvirlangan po‘lat yo‘naltiruvchilar, rolikli dumalash va gidrostatik yo‘naltiruvchilar bilan jihozlanadi.
2. Payvand staninalar va ustunlar, ko‘pchilik hollarda to‘g‘ri burchakli shakldagi toblangan yo‘naltiruvchilarga ega, maxsus texnologiyada payvandlash va termoishlov berish olingan aniqlikni uzoq vaqt saqlashni ta'minlaydi.
3. RDB tokarlik stanoklar staninalari qirindi chiqishini ta'minlash uchun yo‘naltiruvchi tekislikning vertikal yoki qiya holatiga ega.

*Yo‘naltiruvchilar.* Yo‘naltiruvchilarning sirpanish, dumalash va kombinatsiyalangan turlari mavjud. RDB stanoklarda dumalash va kombinatsiyalangan yo‘naltiruvchilar eng keng tarqagan. Bunday yo‘naltiruvchilarda yirik aylanib keladigan toblangan po‘lat plankalar foydalaniladi, planka bo‘yicha oldindan yuklangan rolikli tayanchlar harakatlanadi (aylanib keladigan rolikli yo‘naltiruvchilar). Rolikli tayanchlar (ularni ba’zida tanketkalar deb ham ataladi) har xil rostlovchi qurilmalar yordamida stanina (11) da o‘rnatiladi (1-rasm).

Tayanch (1) pona (2) da mahkamlangan, pona bo‘ylama yo‘nalishda ikkita vint (15) yordamida siljishi mumkin. Ikkinci tayanch staninaning boshqa tomonidan joylashgan va

vint (8) yordamida siljishi mumkin, u esa ponali tayanch (5) bilan bog‘langan. Ponalar (2) va (5) ponali tayanchlar (3) va (7) ga tayanadi, ular esa yon tomonlardan (14) va (9) bilan cheklangan va sferik kallakli shtiftlar (10,13) ga tayanadi. Tayanchlar orasida qistirma (4) joylashgan.


Yig‘ilgan uzelni yakuniy rostlangandan so‘ng bushliq (12) tez qotadigan suyuq plastmassa bilan to‘ldiriladi. U qotganidan so‘ng ponalar (2) va (5) larni siljitish yo‘li bilan uzel bikrligini ta'minlaydigan taranglik yaratiladi.



### **3.1-rasm. Staninada rolikli tayanchlarni o‘rnatish sxemasi**

Dumalash yo‘naltiruvchilarining kamchiligiga konstruksiyaning qimmatligi va harakat yo‘nalishida dempferlash xususiyatining pastligi kiradi.

Detallarga ishlov berishda ba'zi hollarda, stanokning harakatlanuvchi elementlarini mahkamlash kerak bo‘ladi. Bu esa har xil siqish qurilmalari bilan amalga oshiriladi. 2623PMFU stanokda foydalanilgan (2-rasm) trubasimon siqqich original konstruksiyaga ega. Moy bosimi ostida truba (1) deshaklsiyalanadi va planka (2) orqali taranglikni vujudga keltiradi va stanokning bajaruvchi organi (3) ni stanina (7) ga nisbatan qotiradi. Trubasimon siqqich qotirishning tezkorligi va bikrligini ta'minlab tiralishni oldini oladi. RDB stanoklarda boshqa turdag'i: gidrostatik, aerostatik va h.k. yo‘naltiruvchilar ham keng qo‘llaniladi.



**3.2-rasm. Kombinatsiyalangan yo‘naltiruvchilar (dumalash-sirpanish):** 1 – trubka; 2 – planka; 3 – harakatlanuvchi stol; 4 – stolning sirpanuvchi yo‘naltiruvchisi; 6 – siqish plankasi; 7 – staninaning o‘rnatilgan yo‘naltiruvchisi; 8 – stanina.

*Bosh yuritma.* RDB stanoklarning bosh yuritmalariga quvvat bo‘yicha yuqori talablar qo‘yiladi va RDB qurilmasidan boshqarishda tezlikni pog‘onasiz rostlashni ta’minlashi talab etiladi. Bosh yuritmaning har xil turlari: asinxron elektrodvigatelli, rostlanadigan doimiy tok elektrodvigatelli, gidrokuchaytirgichlar bilan birga qo‘llanadigan elektrodvigatelli turlaridan foydalanadi.

*Shpindel.* RDB stanok shpindelinig bikrligi va aylanish aniqligiga yuqori talablar qo‘yiladi. Stanok shpindel uzellarida issiqlikning chiqib ketishiga katta ahamiyat beriladi, issiqlik odatda maxsus moylash va sovitish sistemasi bilan amalga oshiriladi.

*Surish yuritmasi.* RDB stanoklar surish yuritmalarini quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- surishlarni keng diapozondagi rostlashsga 1 dan 10000 mm/min ega bo‘lishi;
- kinematik zanjirlarining yuqori bikrligiga va yurish ravonligiga, ayniqsa, sekin harakatlarda, ega bo‘lishi;
- oshirilgan xizmat muddatiga ega bo‘lishi va RDB qurilmasi tomonidan distansion boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

RDB stanoklarda surish yuritmalarining quyidagi turlari foydalaniladi:

- elektromagnit muftalar bilan qayta ulanadigan mexanik surishlar qutisi orqali, asinxron elektrodvigatelli yuritma;
- aylanishlar chastotasini keng diatirqishonda rostlashni ta'minlaydigan o'zgartirgichga (masalan, tiristorli) ega doimiy tok elektrodvigatelli yuritma;
- yuqori energetik doimiy magnitlardagi past aylanishlarga ega (1000 ayl/min) dvigatellardan foydalanadigan elektrik yuritma, bunday yuritma RDB metall kesish stanoklarda ko'p hollarda oraliq reduktorlarsiz bevosita yuritish vinti bilan ulanadi;
- gidrotsilindr yoki gidrodvigatelli gidroyuritma, bunda gidrodvigatel odatda yuritmaning oxirgi zvenosiga o'rnatiladi (ko'pchilik hollarda, bu zveno dumalash vinti gayka juftligi).

Dumalash vint-gayka uzatmalari RDB stanoklar surish yuritmalarida keng qo'llanadi, chunki sirpanish vintli juftliklariga nisbatan ularning FIK ancha yuqori, ularning tinch va harakatdagi ishqalanish koeffitsientlari deyarli bir xil bo'lsada, lekin ishqalanish koeffitsienti harakat tezligidan bog'liq emas. Tirqishni tanlashda uzatma tirqishsiz juftlikni hosil qilib, yetarlicha yuqori o'qiy bikrlikka ega bo'ladi. 0 sinf vintli uzatmalarida 300 mm da yig'iladigan xatolik 3 mm ni va 1000 mm da 7 mkm ni tashkil etadi, 1 sinfdagilarda esa 10 mkm 300 mm ga, 20 mkm 1000 mm ga teng.

RDB stanoklar surish yuritmalarida taranglikni avtomatik rostlaydigan uzatmalar ham qo'llanadi. Bu esa tez harakatlarda (20 m/min) taranglikni kamaytirib qizishni kamaytirish ishchi harakatlarda esa taranglikni oshirib, yuqori bikrlikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. O'zicha o'rnatiladigan gaykali konstruksiyalar ham foydalaniadi.

Adaptiv boshqarishni ta'minlash maqsadida qirqish kuchini o'qiy tashkil etuvchilarini o'lchash datchiklari bilan jihozlangan surish yuritmalarini ishlab chiqilgan. Sharikli juftlikdan tashqari og'ir RDB stanoklar surish yuritmalarida gidrostatik vint-gayka uzatmalari ham qo'llanadi [12].

## **2.2. Teskari aloqa datchiklari.**

Hozirgi vaqtda RDB stanoklarning barchasi yopiq boshqarish sistemalari bo'lib, teskari aloqa datchiklariga ega. RDB stanoklarda turli xil konstruksiyadagi datchiklar:

magnit; fotoelektrik; induksion; elektrik; optik; ultratovush; lazerli va h.k. qo'llaniladi. Ulardan asta-sekin eng qulaylari ajralib chiqmoqda.

Teskari aloqa datchiklari chiziqli va aylanali turlarga bo'linadi. Chiziqli turlariga chiziqli induktosin (0,01 mm) va optik shkala (0,001 mm), aylanali turlariga aylanali induktosin (0,01 mm) va aylanuvchi transshakltor, yoki rezolver (0,01 mm) kiradi. Keyingi vaqtda jadal suratlarda interferometr asosidagi lazerli datchiklar 0,001 mm yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, ular aniq RDB stanoklarda qo'llanadi.

*Chiziqli induktosin* (2, a-rasm) stanokning quzg'almas qismiga bikr mahkamlangan chizg'ich I va stanokning qo'zg'aluvchi qismi bilan birga harakatlanadigan slayder II dan iborat.

Induktosin chizg'ichsi asosi bo'lib izolyasion material yoki alyuminiydan tayyorlangan detal (1) xizmat qiladi. Bu detal izolyasion material bilan qoplanib, unda mis chulg'am (3) (meandr qadami 2 mm bilan) o'raladi. Mis chulg'am ustidan lak qatlami (4) qoplanadi. Slayder II ekran (5) bilan jihozlangan bo'lib, u mis chiziqchalardan iborat. Slayderda ikkita S1–S3 va S2–S4 pechatlangan chulg'amlar bajarilgan, ular bir-biriga nisbatan 1/4 qadamga yoki faza bo'yicha 90° siljitelgan (3,b-rasm).


Slayder stator bo'lib, uning chug'amlariga chastotasi 4000 Gs o'zgaruvchan tok beriladi. Induktosin chizg'ichi rotor bo'lib, uning chulg'amidan sinusoidal kuchlanish ko'rinishidagi  $U_a$  signal olinadi (1.7,d-rasm).

Slayder magnit maydoni boshidan oxirgacha harakatlanadi va boshiga qaytadi, va yana oxirgacha boradi. Chizg'ich induksiyalangan kuchlanish fazasidagi siljishi chizg'ich chulg'amining slayder chulg'amiga nisbatan holatiga bog'liq. Slayderning siljishi davriy ravishda faza siljishini minimumdan maksimumgacha o'zgarishiga olib keladi; bu esa faza siljishlarini impulsga (kodga) o'zgartirish sistemasida mos elektr signal impulslarini ta'minlaydi. Ixtiyoriy vaqt oraliqlarida hisoblagich aniqlangan impulslar summasi stanok bajaruvchi organining harakatini beradi.

*Optik shkala* – bu chiziqli optik o'lcham sistemasi induktosinga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega. U ifloslanishlarga kam sezgir bo'lib, hisoblash kallagi va chizg'ich

orasidagi masofani rostlash aniqligiga yuqori talablar qo‘ymaydi. Sistemaning ishlashi o‘zgartirgich fotodiodlari qaytargan nurni hisoblashga asoslangan.

*Aylanuvchi transsshakltor (rezolver)* – bu rotorning aylanish burchagini sinusoidal tokka o‘zgartiruvchi o‘zgaruvchan tok mikromashinasidir. Aylanuvchi transsshakltor statori (3,e-rasm) ikkita bir fazali chulg‘amlar S1 – S2 va S3 – S4 ga ega bo‘lib, ular diffuzorga nisbatan  $90^{\circ}$  siljitimdan.



**3.3-rasm. Teskari aloqa datchiki:** a-d – chiziqli induktosin; e – aylanuvchi transsshaklitor.

Rotor ham ikkita chulg‘amga ega bo‘lib, ( $R_1 - R_2$  va  $R_3 - R_4$ ), ular ketma-ket ulangan. Magnit o‘tkazgich elektrotexnik po‘lat listlaridan yoki permalloydan tayyorlanadi. Rotor va statorlarda bir tekis ariqchalar joylashtirilgan bo‘lib, ularda o‘zaro perpendikulyar chulg‘amlar o‘rnatilgan. Aylanuvchi transsshakltorlarda birlamchi chulg‘amlar ko‘p hollarda, stator chulg‘ami hisoblanadi, ikkilamchi esa – rotor chulg‘ami bo‘lib, harakatlanuvchi element bilan bog‘langan bo‘ladi. Rotorning burilishida undan sinusoidal kuchlanish olinadi.

Rotor chulg‘amidan tokni olish kontakt xalqa va cho‘tkalar yordamida amalga oshiriladi. Aylanuvchi transsshakltorning stator chug‘amlari 400, 1000, 2000 va 4000 Gs chastotadagi o‘zgaruvchan tokka ulanadi. Uланган tokni o‘zgartirish qonuni sinusoidal yoki to‘g‘ri burchakli bo‘lishi mumkin. Stator chulg‘amlarini o‘zgaruvchan tok tarmog‘iga

ulanganda aylanuvchi magnit maydoni hosil bo‘ladi. 3,e-rasmdagi strelka ayni momentda rotorda o‘tadigan natijaviy magnit oqimini ko‘rsatadi. Magnit maydoni stator chulg‘amiga ulangan tok chastotasiga mos tezlik bilan aylanadi. Aylanuvchi magnit maydoni rotor chulg‘amida amplitudasi deyarli doimiy bo‘lgan o‘zgaruvchan kuchlanish induksiyalaydi. Rotor chulg‘amida induksiyalangan kuchlanish chiqish signali bo‘lib, uning fazasi statorga sinusoidal kirish signaliga nisbatan siljigan bo‘ladi. Fazalarning bunday siljishi rotoring holatidan bog‘liq bo‘ladi. Agar rotor vertikal joylashgan bo‘lsa, unda musbat maksimal kuchlanish induksiyalanadi, uning sinusoidal chulg‘ami ham maksimal musbat cho‘lg‘atishga ega bo‘ladi. Shunday qilib, rotor valining burilishida, uning mexanik aylanish burchagi elektrik, ya’ni fazalar siljishiga aylantiriladi.

Ko‘p qutbli aylanuvchi transshakltorlar keng qo‘llanadi. O‘n qutbli aylanuvchi transhakltorning ham ishlash prinsipi xuddi shunday. Bu ikki aylanuvchi transshakltorlarning farqi mexanik aylanish burchagiga nisbatan fazalarning elektrik siljishidan iborat bo‘ladi.

### **2.3. Qadamli elektr dvigateli**

Bunday dvigatellar RDB stanoklar surish yuritmalarida keng qo‘llanadi. U jamlangan chulg‘amli reaktiv rotorli sinxron mashinadir. MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan metall kesish stanoklar surish yuritmalari uchun qadamli dvigatellar (ShD-4, ShD-5) uch fazali sxema bo‘yicha quriladi. Bunday dvigatelning ishlash prinsipi quyidagicha. Stator (1) (4,a-rasm) uch juft qutb va chulg‘amlarga (I-III) ega. Rotor (2) ham uchta seksiyaga bo‘lingan, lekin ular aylana bo‘yicha qutb oralig‘i masofasining 1/3 qismiga siljiltilgan. Shunday qilib rotoring birinchi seksiyasi qutbi stator qutbi bilan to‘g‘ri turadi, ikkinchi seksiya qutbi stator qutbiga nisbatan 1/3 qismiga, uchinchi seksiya qutbi esa qutb oralig‘i masofasining 2/3 qismiga siljigan bo‘ladi.

Agar statorning birinchi faza chulg‘amiga (I) doimiy tok ulansa dvigatel rotori shunday holatni egallaydiki, bunda rotoring birinchi seksiya qutbi stator qutbining qarshisida o‘rnataladi. Agar so‘ngra birinchi fazadagi tokni uzib, ikkinchi fazaga tok berilsa, rotor 1/3 qadamga buriladi (4, b-rasm).


I, II, III obmatkalarga ketma-ket tok berilsa, rotor soat strelkasi bo‘yicha aylanadi (4,d-rasm). Agar fazalarni teskari tartibda tokka ulansa rotor teskari tarafga aylanadi.

Rotoring burilish burchagi  $1,5^0$  yoki  $3^0$  ni tashkil qilishi mumkin, olti kontaktli qo‘shgich bilan jihozlangan ShD-4 dvigatelida impulslarining maksimal chastotasi 800 Gs. Bunday dvigatel impuls miqdori 0,01 mm bo‘lganda 1200 mm/min gacha surish tezligini ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda katta chastotali tok impulsiga ega qadamli dvigatellar ishlab chiqarilmoqda, ular 5-10 m/min surish tezligini ta'minlay oladi.

Ishlab chiqariladigan qadamli dvigatellarning quvvati uncha katta bo‘lmaganligi uchun burovchi momentni kuchaytirish gidravlik kuchaytirgichlar yordamida ta'minlanadi. Burovchi moment gidrostansiyasidagi moy oqimi energiyasidan foydalanish hisobiga orttiriladi. RDB stanoklarda momentni gidrokuchaytirgichlari foydalaniladi. Ular qadamli elektrodvigatel va kichik inersiyali yuqori momentli gidroyuritmadan tashkil topgan bo‘ladi.


Gidrokuchaytirgich kuzatuvchi boshqarishga ega aksial-porshenli gidromotordan iborat (5,a-rasm). U qadamli dvigatel beradigan burovchi momentni kuchaytirishni ta'minlaydi. Gidromotor rotori (3) da porshenlar (2) joylashgan bo‘lib, ular o‘qiy yo‘nalishda harakatlanishi mumkin. Taqsimlovchi (4) ning yarim xalqa tirkishi R1 orqali dvigatelga kelib tushadigan moy bosimi ostida porshenlar (2) tayanch sharikopodshipnik xalqasi (1) ga tiraladi. Xalqa qiya joylashgan bo‘lib, porshenlar podshipnik hosil qilgan qiya tekislik bo‘yicha sirpanib, rotorni rasmda ko‘rsatilgan strelka bo‘yicha burilishga majbur qiladi.

Rotor A holatni egallaganda unga moyning oqib kirishi to‘xtaydi, chunki rotor teshigi taqsimlagichning teshikni yopish elementiga to‘g‘ri keladi. Keyingi burilishda moy taqsimlagichning yarim xalqa tirkishi R2 orqali oqib chiqadi. Shunday qilib, har bir porshen, rotoring yarim aylanishida ishchi yo‘lini bajaradi, ikkinchi yarim aylanishida esa teskari (salt) yurishni bajaradi.



**3.4-rasm. Qadamli dvigatel:** a – qo‘rilma; b, d – ishlash prinsipi

Rotoring aylanish yo‘nalishini o‘zgartirish uchun moy bosim ostida tirkish R2 dan kiritilib tirkish R1 dan oqib chiqariladi. Moy oqimini boshqarish qadamli dvigatel tomonidan boshqariladigan kuzatuvchi qurilma vositasida amalga oshiriladi. Bu dvigatel vali kuzatuvchi qurilma plunjeri bilan birlashtirilgan. Plunjera xalqasimon ariqchalar K1 va K2 hamda bo‘ylama tirkishlar P1 va P2 mavjud. Plunjera gidrokuchaytirgich vali bilan birlashtirilgan vtulka 5 da o‘rnatalgan. Vtulka (5) xalqasimon ariqchalari V1, V2, V3, V4 bo‘lgan korpus (7) ga kiydirilgan.



### 3.5-rasm. Burovchi momentni gidrokuchaytirgich.

Xalqasimon ariqcha V2 ga kanal D bo‘yicha bosim ostidagi moy beriladi; ariqcha V2 moyni chiqib ketishi uchun xizmat qiladi (kanal S); ariqchalar V1, V4 taqsimlagich (4) bo‘shlig‘idagi kanallarga ulangan. 5,a-rasmda ko‘rsatilgan holatda plunjер (6) gidrokuchaytirgichga moy kirishini yopib turadi va u ishlamaydi. Lekin moyni gidronasosdan kanal D, kuzatuvchi qurilma korpusi ariqchasi, vtulka (5) teshigi O1 bo‘yicha plunjер tirqishii P1 ga va so‘ngra ariqchalar K1, V1 va taqsimlagich (4) orqali gidrokuchaytirgich rotoriga tushib, uni plunjер aylanadigan tomonga burishi uchun plunjerni juda kichik burchakka burish yetarli bo‘ladi (5,b-rasm). Moyning gidrokuchaytirgichdan chiqib ketishi xalqasimon ariqcha V4, plunjер tirqishi P2, vtulka (5) teshigi O2, ariqcha V3 va kanal S orqali ta'minlanadi (5,d-rasm). Agar plunjerni qadamli dvigatel yordamida to‘xtovsiz aylantirilsa, u bilan bir vaqtда (undan orqaroqda qolib) gidrokuchaytirgich rotori ham aylanadi. Plunjер to‘xtaganda vtulka teshiklarini yopib, moy harakatini to‘xtatadi va gidrokuchaytirgich rotori ham darhol to‘xtaydi. Gidrokuchaytirgichni teskari tomonga aylantirish uchun qadamli dvigatel valining aylanish yo‘nalishini o‘zgartirib, kuzatuvchi qurilmada moy oqimi yo‘nalishini teskari yo‘nalishga o‘zgartirish yetarli.


*Kuzatuvchi elektr yuritma.* Kuzatuvchi yuritmalarda qo‘llanadigan elektr dvigatellarning o‘ziga xos xususiyati – bu aylanish yo‘nalishini o‘zgartirishi bilan birga

aylanish tezligini keng diapozonda ravon rostlash imkoniyatidir. Shu maqsadlarda tezlikni keng diapazonda ravon rostlashni ta'minlash bilan birga, yetarlicha yuqori FIK ega bo'lgan doimiy tok elektrodvigatellari keng foydalaniladi. RDB stanoklar bosh harakat mexanizmlari uchun rostlanadigan doimiy tok elektrodvigatellari qatorning ixtiyoriy maxraji bo'yicha qirqish rejimlarini tanlash, adaptiv boshqarishni qo'llash bilan tezlikni qirqish vaqtida korreksiyalash, tezlikni o'zgartirishni boshqarishni soddalashtirish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Yangi modeldag'i qator stanoklarda bosh harakat mexanizmlarida tiristorli o'zgartirgich bilan jihozlangan yuritmalar o'rnatilgan. RDB stanoklarda tezkor doimiy tok elektrodvigatellaridan tashqari rostlanadigan o'zgaruvchan tok elektr yuritmalari ham qo'llanadi [7, 12, 16].

#### **2.4. Asboblarni avtomatik almashtirish qurilmalari**

RDB ko'p operatsiyali stanoklarning asosiy konstruktiv xususiyatlardan biri bu ularda asboblarni avtomatik almashtirish qurilmasining mavjudligidir. Umumiy holda, asboblarni almashtirishni avtomatlashtirish uchun ikki xil asosiy elementlardan tashkil topgan qurilma va mexanizmlar sistemasi: bir yoki bir nechta zagotovkalarga ishlov berish uchun yetarli bo'lgan asboblarni saqlash magazini; asbobni magazindan stanok shpindeliga va teskari uzatish uchun asbobni avtomatik almashtirish qurilmasi foydalaniladi.

*Magazin uyasi va stanok shpindelida asboblarning o'qdosh joylashishida ularni almashtirish uchun magazin uyasi o'qi shpindel o'qi bilan mos kelguncha magazinni aylantirib, asbobni magazindan chiqarib, shpindelda mahkamlash yetarli. Ish bajarib bo'lgan asbobni magazinda o'rnatish teskari tartibda amalga oshiriladi. Bunday qurilmalarning ishlash prinsipi 6-rasmda ko'rsatilgan.*



### **3.6-rasm. Stanok shpindeli va magazinida asboblarning o‘qdosh joylashishida ularni almashtirish sxemasi.**


Qurilmada 12 ta asbobga mo‘ljallangan magazin qiya burilish burchagiga ega bo‘lgan yirik baraban shaklida bajarilgan. Asboblarni almashtirish vaqtida pastki holatda joylashgan magazin uyasi o‘qi shpindel Sh o‘qi bilan muvofiqlashtirilgan. Pinol pastga harakatlanganda shpindel asbob to‘g‘rilagichdan tutib, uni zagotovka tomon suradi. to‘g‘rilagich shpindelda avtomatik siqiladi. Pinolning yuqori holatga harakatlanishida asbob to‘g‘rilagichi asbob bilan birga shpindeldan avtomatik ajralib magazin uyasida qoldi.

Shpindelning yuqori holatida magazin aylanib, dasturda berilgan keyingi asbobni izlash bajariladi. Burilish burchagi kerakli asbob joylashgan uya nomeri bilan aniqlanadi. Magazinning burilish vaqtida mashina vaqtida birlashtirilmagan, ya’ni to‘xtab turgan shpindel holatida bajariladi. Ba’zi stanoklarda magazin (revolver kallak) shpindel bilan birgalikda uning ishchi surishida harakatlanadi.


Asboblar magazinini stanok ish zonasidan tashqarida joylashtirish uchun, uni shpindel babkasidan yuqoriga ko‘tarishadi, boshqa tomonga o‘rnatishadi, ba’zi hollarda ustundan alohida o‘rnatiladi. Barcha bunday hollarda *asbob o‘qi magazin va stanok shpindelidan bir xil emas, o‘zaro parallel bo‘ladi* (7-rasm).

*Asboblari magazin M da vertikal joylashtirilgan stanoklarda* (8- rasm) asboblar buriladigan vtulka uyalar G da mahkamlangan. Asboblarni almashtirish pozitsiyasida vtulkalar gorizontal holatga buriladi va asbob o‘qi shpindel o‘qi bilan parallel holatga o‘tadi. Asbobni almashtirish sikli oddiy.


Asboblarni almashtirishni avtomatlashtirishni ko‘rib o‘tilgan qurilmalarida asboblarni almashtirish shpindel bakkasining faqatgina berilgan ma'lum bir holatida amalga oshirilishi mumkin. Bunday kamchiliklar metall qirqish stanoklar uchun *gorizontal shpindelli diskli yoki zanjirli magazinli asboblarni avtomatik almashtirish qurilmalarida* kuzatilmaydi (9-rasm). Tutqichlar avtooperator A korpusi karetkasidan siljib chiqishi mumkin, karetka esa stanok ustunidan yuqoriga va pastga hamda magazin M va shpindel Sh o‘qiga parallel yo‘nalishda harakatlanishi mumkin.



**3.7-rasm. Stanok shpindeli va magazinda asboblarning parallel joylashishida ularni almashtirish sxemasi**




**3.8-rasm. Buriladigan avtooperator bilan asboblarni almashtirish qurilmasi**



**3.9-rasm. Zanjirli magazinli stanoklarda asboblarni almashtirish sxemasi**

*Kutish pozitsiyasiga ega asboblarni avtomatik almashtirish qurilmalari* alohida guruhnini tashkil etadi (10-rasm). Bunday qurilmalarning oraliq uyalarida kutish

pozitsiyasida (KP), shpindelga uzatishga tayyorlangan yoki ishlab bo‘lgan, magazin uyasiga qaytarishni kutib turgan asbob joylashishi mumkin. Bunday stanoklarda magazin ustunning yon tomonida joylashgan bo‘lib, magazin va shpindeldagi asboblarning o‘qi o‘zaro perpendikulyar bo‘ladi. Shuning uchun kutish pozitsiyasi vertikal o‘qqa nisbatan buriladigan uya ko‘rinishida bajarilgan. Asosiy A va qo‘sishma QA avtooperator o‘zaro perpendikulyar tekisliklarda harakatlanadi.



**3.10-rasm. Asboblarni kutish pozitsiyasigi ega bo‘lgan qo‘rilmalar bilan almashtirish sxemasi**

#### **Nazorat savollari**

1. Baza tushunchasi nimani bildiradi?
2. Bazalash deganda nimani tushunamiz?
3. Bazalash sinfi nechta va qaysilar?
4. Konstruktorlik bazani qanday tushunasiz?
5. Texnologik baza deb nimaga aytildi?
6. O‘lchash bazasi deganda nimaga tushuniladi?

#### **Foydalilaniladigan adabiyotlar:**

1. Serope Kalpakjian, Steven R. Schmid, Hamidon Musa. Manufacturing Engineering and Technology - Prentise Hall, USA.- 2012.1173

2. Maykl Fitspatrik Технология обработки с ЧПУ. The McGraw-Hill Companies, Americas, New York, 2019 <http://www.twirpx.com/file/1374005/>.
3. Митрофанов В.Г. и др. Основы автоматизатсии машиностроительного производства. М.: Высшая школа, 2001.
4. Соломенцев Ю.М. и др. Автоматизация технологических процессов и приборов. М.: Высшая школа, 2001.

## **4-mavzu. Mashinasozlik ishlab chiqarishda additiv texnologiyalar.**

### **Reja:**

1. Additiv ishlab chiqarish.
2. AIC ning boshqa KM texnologiyalariga nisbatan joylashishi.
3. Additiv ishlab chiqarish texnologiyasining afzalliklari.
4. AIC texnologiyasining kamchiliklari.
5. Bozordagi istiqbollari.
6. 3D ishlab chiqarish (printing)
7. Jarayonning asosiy bosqichlari

**Tayanch iboralar:** Additiv ishlab chiqarish, 3D modellash, avtomobilsozlik, airokosmika, yuza qatlamlari

### ***Additiv ishlab chiqarish***

Additiv ishlab chiqarish, shuningdek, 3D bosib chiqarish (3D printing), tezkor prototiplash yoki erkin shaklda ishlab chiqarish sifatida ham tanilgan, "ishlov berish kabi subtractive ishlab chiqarish metodologiyasidan farqli o'larq, odatda qatlam-qatlam bo'lган 3D model ma'lumotlaridan ob'ektlarni yaratish uchun materiallarni birlashtirish jarayoni".

Metall kukunlari bilan Additiv ishlab chiqarish (AIC) dan foydalanish Evropada joylashgan ko'plab yetakchi kompaniyalari bilan yangi va rivojlanayotgan sanoat sektoridir. Bu avvalgidek nafaqt prototiplarni, balki murakkab metall to'r shaklidagi qismlarni ishlab chiqarish uchun mos jarayon bo'ldi.

Additiv ishlab chiqarish endi aerokosmik, energetika, avtomobilsozlik, tibbiyot, asbobsozlik va iste'mol tovarlari kabi turli sanoat tarmoqlarida ham dizayn, ham sanoat inqilobini amalga oshirish imkonini beradi.




Bathsheba Grossman tomonidan ishlab chiqilgan nozik metall detal (Courtesy of Höganäs AB - Digital Metal ®)



Gaz turbinasi demonstratori (diametri 250 mm va uzunligi 600 mm), funksiyalarni birlashtirish, qismlar sonini kamaytirish, og'irlikni tejash va ishlash uchun Al-, Ti- va Ni-asosli kukunlari bilan selektiv lazer eritish orqali tayyorlangan qismlarni yig'ish orqali (Xushmuomalalik bilan) yasalgan.

ASTM F2792-10 standartiga ko'ra, Additiv ishlab chiqarish an'anaviy ishlov berish kabi kesib tashlaydigan ishlab chiqarish usullaridan farqli o'laroq, odatda qatlam-qatlam bo'lган 3D model ma'lumotlaridan ob'ektlarni yaratish uchun materiallarni birlashtirish jarayonidir. Metallarni Additiv ishlab chiqarish texnologiyalari juda ko'p, shuning uchun quyidagi grafikda ko'rinib turganidek, turli xil atamalar va qisqartmalar ishlab chiqilgan. Ammo bugungi kunda Additiv ishlab chiqarish sanoat bozorlarida eng keng tarqalgan atama bo'lib, iste'mol bozorida 3D ishlab chiqarish ko'proq qo'llaniladi.




#### 4.1-rasm. AIC ning boshqa KM texnologiyalariga nisbatan joylashishi

Additiv ishlab chiqarish boshqa kukun metallurgiyasi (KM) texnologiyalarini to'ldiradi.

Issiq izostatik presslash (HIP) singari, Additiv ishlab chiqarish kichik yoki o'rta seriyali detallarni ishlab chiqarish uchun ko'proq mos keladi. HIP jarayoni odatda bir necha yuz kilogramm bo'lgan massiv shaklidagi detallarni ishlab chiqarish uchun qo'llanilsa-da, Additiv ishlab chiqarish jarayoni bir necha kilogramm kichikroq detallar uchun ko'proq mos keladi va katta dizayn erkinligi tufayli murakkab metall detallarni ishlab chiqarish uchun yaxshilangan imkoniyatlarni taqdim etadi.

Metall inyeksiyon quyish (MIM) va press va sinterlash texnologiyalari ham aniq shaklli qismlarni ishlab chiqarish imkoniyatini taklif qiladi, ammo ular kichik detallarning katta seriyasi uchun tavsiya etiladi.



#### **4.2-rasm. Har xil PM texnologiyalarini detalning og'irligi yoki hajmi va ishlab chiqarish seriyasiga ko'ra joylashtirish**

##### *Additiv ishlab chiqarish texnologiyasining afzalliklari*

Metall detallarni additiv ishlab chiqarish texnologiyalari ko'plab asosiy afzalliklarni taqdim etadi.

An'anaviy quyish va ishlov berish bilan solishtirganda dizayn erkinligi ortadi

Yengil konstruktsiyalar, panjara dizaynidan foydalanish yoki boshqa cheklovlarsiz material faqat kerakli joyda bo'lgan qismlarni loyihalash orqali amalga oshiriladi.

Murakkab ichki kanallar yoki bir nechta detallarni bittada qurish kabi yangi funktsiyalar


To'g'ri shaklli jarayon xom ashyoni kamroq iste'mol qilishni anglatadi, mexanik ishlov berishdan 25 martagacha kamroq, qimmat yoki ishlov berish qiyin bo'lgan qotishmalarda muhim ahamiyatga ega.

Aniq shakl olish qobiliyati bir bosqichda murakkab detallarni yaratishga yordam beradi, shu bilan payvandlash, mahkamlash kabi yig'ish operatsiyalari sonini kamaytiradi.

Qoliplar va metallni shakllantirish yoki kesib tashlash vositalarini talab qiladigan boshqa an'anaviy metallurgiya jarayonlaridan farqli o'laroq, hech qanday asbob kerak emas.

Ishlab chiqarish tsikli vaqtin qisqa: murakkab detallar additiv mashinalarda bir necha soat ichida qatlama-qatlama qilib ishlab chiqarilishi mumkin. Jarayondan keyingi ishlov berishning umumiyligi davri odatda bir necha kun yoki haftani tashkil qiladi va odatda bir necha oylik ishlab chiqarish tsikllarini talab qiladigan an'anaviy metallurgiya jarayonlaridan ancha qisqaroqdir.


Jarayon kichik seriiali detallarni ishlab chiqarish uchun tavsiya etiladi



Murakkab ichki kanallarga ega  
gidravlik prototip, (Manba: EU project  
COMPOLIGHT)

ITER uchun 316L vakuumli  
o'tkazgichning prototipi LBM  
tomonidan ishlab chiqarilgan, uni  
an'anaviy usullar bilan ishlab chiqarish  
mumkin emas.. (Courtesy of IK4-  
Lortek)

	
<p>Ti6Al4V EBM tomonidan ishlab chiqarilgan sun'iy yo'lidosh antennasini topologiyani optimallashtirish orqali yaratilgan engil dizayn bilan qo'llab-quvvatlash. (Courtesy of Poly-Shape)</p>	<p>Osseointegratsiyani yaxshilash uchun yuqori o'ziga xos sirt dizayniga ega Ti6Al4V implant (asetabulyar chashka). (Courtesy of ARCAM)</p>



Kukunli yotqizish texnologiyalari an'anaviy ishlab chiqarish bilan solishtirganda hech qanday xarajatsiz detallarni moslashtirish va dizayn murakkabligini oshirish imkonini beradi (Fraunhoferning izni bilan)

### *AIC texnologiyasining kamchiliklari*

AIC texnologiyalaridan to'liq foydalanish uchun ba'zi cheklovlarini bilish muhimdir:

**Detal o'lchami:** kukunli yotqizish texnologiyasi bo'lsa, detal o'lchami standart kukunli yotqizish tizimlari uchun 250x250x250 mm kabi kukunli yotqizish hajmi bilan cheklangan. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri energiya yotqizish (yoki lazerli metallni yotqizish) jarayonlari bilan detallarning o'lchamlari kattaroq bo'lishi mumkin. Ammo, kukun qatlamlarining past qalinligi tufayli, katta detallar yoki massiv detallarni yasashda bu juda sekin va qimmat bo'lishi mumkin.

**Ishlab chiqarish seriyasi:** AIC jarayonlari odatda unitar yoki kichik seriyalar uchun mos keladi va ommaviy ishlab chiqarish uchun tegishli emas. Ammo mashina unumdorligini oshirish va shu tariqa kattaroq seriyalarni ishlab chiqarish bo'yicha yutuqlarga erishildi. Kichik o'lchamli detallar uchun yiliga 25000 donagacha bo'lgan detal seriyasini ishlab chiqarishga allaqachon erishildi.

**Detal konstruksiyasi:** kukunli yotqizish texnologiyasida, o'tish burchagi  $45^{\circ}$  dan past bo'lganda olib tashnadigan maxsus supportlar tuzilmalari kerak bo'ladi.

**Materialni tanlash:** ko'plab qotishmalar mavjud bo'lsa-da, payvandlash mumkin bo'lмаган metallarni additiv ishlab chiqarish orqali ishlash mumkin emas va payvandlash qiyin bo'lgan qotishmalar maxsus usullarni talab qiladi.

**Materialning xususiyatlari:** additiv ishlab chiqarishda ishlab chiqarilgan detallar Z o'qi (qurilish yo'nalishi) bo'yicha anizotropiyani ko'rsatishga moyildir.

Bundan tashqari, 99,9% zichlikka erishish mumkin bo'lsa-da, ba'zi qoldiq ichki g'ovakliklar bo'lishi mumkin. Mexanik xususiyatlar odatda quyma detallar uchun ustundir, lekin odatda ishlangan detallardan pastroqdir.

### *Bozordagi istiqbollari*

Additiv ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalanish ko'plab sohalarda rivojlanmoqda:

*aerokosmik*

*energiya*

*tibbiy, xususan, jarrohlik implantlari va stomatologik uskunalarda*

*ayniqsa, plastmassalarni mexanik ishlash uchun asboblar*

*avtomobil va transport*

*iste'mol tovarlari*

*va boshqalar.*


### ***3D ishlab chiqarish (printing)***

3D ishlab chiqarish jarayoni ikki bosqichdan iborat bilvosita jarayondir.

3D qurish platformasida kukun qatlamini qo'llaganingizdan so'ng, kukun printer naychasi orqali ta'minlanadigan bog'lovchi tufayli aglomeratsiyalanadi.

Jarayon detallar ishlab chiqarilgunga qadar takrorlanadi, keyinchalik ular "yashil" bosqichda bo'lganligi sababli, kukun stolidan ehtiyyotkorlik bilan olib tashlanishi kerak.


Metall detalning qotishi ikkinchi bosqichda, ajratish va sinterlash jarayonida, ba'zan esa infiltratsiya bosqichida sodir bo'ladi.



### ***Jarayonning asosiy bosqichlari***

Metall detallarni additiv ishlab chiqarish texnologiyalari bilan ishlab chiqarish 3D modellashtirishdan boshlanadi. Keyin ma'lumotlarni tayyorlash detallarning

yo'nalishini aniqlash, qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalarni joylashtirish va modelni kesish uchun tashkil etilishi kerak. Detallarni ishlab chiqarishdan so'ng, keyingi ishlov berish operatsiyalari kerak bo'ladi.



### Nazorat savollari

1. Additiv ishlab chiqarish nima?
2. Additiv ishlab chiqarish turlari.
3. 3D ishlab chiqarish.
4. Additiv ihslab chiqarish qo'llaniladigan sohalar.
5. 3D ishlab chiqarish bosqichlari.
6. Additiv ishlab chiqarishning kamchiliklari
7. Additiv ishlab chiqarishning afzalliklari.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Davim J.P., Jackson M.J. Production technology. Nova Science Publishers, Inc., 2011. <http://www.twirpx.com/file/1472025>
2. Суслов А.Г. Технология машиностроения.- М: Машиностроение. 2018.-

3. Базров Б.М. Основы технологии машиностроения. –М:  
Машиностроение, 2005.-736 с.

4. Проектирование технологии автоматизированного машиностроения.  
Под ред. Соломенцова Ю.М. М.: «Высшая школа», 1999.

## **5-mavzu: Zamonaviy mashinasozlikda mahsulot sifatini oshirishni ta'minlashdagi muammoli yo'nalishlar.**

*Reja:*

1. *Zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarishining mahsulot sifatini oshirishni ta'minlashdagi muammoli masalallari.*
2. *Zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarishida mahsulot sifatini oshirishni ta'minlashdagi muammoli masalallarini yechish usullari.*
3. *Zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarishida mahsulot sifatini oshirishni ta'minlashda interaktiv texnologiyalardan foydalanish.*

**Tayanch so'z va iboralar:** mashinasozlik, mahsuldorlik, sifat, aniqlik, innovatsion texnologiya, ishlov berish, o'lhash, sifatni aniqlash, texnologik tizim, aniqlikka ta'sir etuvchi omillar.

### **5.1. Zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarishining mahsulot sifatini oshirishni ta'minlashdagi muammoli masalallari.**

Ishlab chiqarishning jamiyatda va kundalik xayotimizda tutgan o'rni. Jamiyat mashinasozlgida ishlab chiqarish: mehnat, ilmiy tadqiqot, loyiha, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashтирish, aholiga xizmat ko'rsatishda mahsulot sifatini oshirishni avtomatlashтирish, tashkiliy-iqtisodiy boshqarishni avtomatlashтирish, zamonaviy texnika va texnolgiyalar ishlab chiqish tizimini jadallashtirish kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

Jamiyatda ishlab chiqarish va ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini ta'minlash eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Jamiyatda ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati juda yuqoridir.

Mashinasozlikda mahsulot sifatini ta'minlashning asosan ikkita usuli mavjud. 1. «Sifatga erishguncha ishlov berish va o'lhash» yoki «Sinov yurish va o'lhash» o' usuli. 2. «Sifatga avtomatik erishish» usuli.

«Sifatga erishguncha ishlov berish va o'lhash» usulning mohiyati shundan iboratki, dastgohda o'rnatilgan tanavor ishlanuvchi yuzasiga keskich asbobni tekkizib,

o'ngga surib tanavordan chiqariladi, dastgoh limbi bo'yicha hisoblab ma'lum kesish chuqurligiga o'rnatiladi, keskichni tanavorga yaqin keltiriladi va boshlanish uchastkasidan qisqa masofada sinov yurish qilib ishlov beriladi va keskichni orqaga surib qo'yiladi, so'ngra esa dastgoh to'xtatiladi. Ishlangan sirt o'lchagich asbob bilan o'lchab ko'riladi, chizmadagi o'lchamdan chetga chiqishi aniqlanib, keskich asbobning holatiga tuzatish kiritiladi. Keyin esa yana, tanavorning shu uchastkasiga ishlov berilib sinov qirindisi olinadi va yana o'lchanadi. Bu aniq o'lchamga erishguncha davom ettiriladi. Undan keyin tanavorga butun uzunligi bo'yicha ishlov beriladi. "Aniqlikka erishguncha ishlov berish va o'lchash" usulida keskichni tanavorga nisbatan to'gri holati o'rnatiladi va talab etilgan o'lcham aniqligi ta'minlanadi. Navbatdagi tanavorga ishlov berishda bu uslubni qo'llash yana takrorlanadi.

«Aniqlikka erishguncha ishlov berish va o'lchash» usuli quyidagi afzalliklarga ega:

- noaniq dastgohlarda aniq ishlov berishga erishiladi; tanavorga noaniq dasgohda ishlov berilganda, yuqori malakali ishchi bu usul yordamida tanavor xatoligini aniqlashi va yo'qotib to'g'rashi mumkinligi;
- mayda tanavorlar partiyasiga ishlov berilganda, ushlanuvchi o'lchamlarning aniqligiga keskich asbob yejilishini ta'sirini yo'qotish, bu usul bilan asbob holatini aniqlab, asbob yejilishiga bog'liq bo'lgan talab asosida kerakli tuzatishlar kiritilganligida;
- noaniq tanavorlarda qo'shimlarni to'g'ri taqsimlashga erishilishi va ishga yaroqsizlik poydo bo'lishining oldi olinishi;
- kichik o'lchamga ega bo'lgan tanavordan rejlash (razmetkalash) natijasida ishga yaroqli bo'lgan detal olish mumkinligi;
- ishchini, murakkab va qimmatbaho moslama ishlatish (konduktor-moslamalarga o'xshash), aylanuvchi va bo'luvchi moslamalar va jihozlardan ozod qilinishi;

– teshik markazlari va ishlanuvchi yuzalarning o‘zaro joylashuvi rejalash asosida aniqlanishi.

Shuning bilan bir qatorda bu usul quyidagi jiddiy kamchiliklarga ega:

- ishlov berishda erishilgan aniqlik, kesib tushiriluvchi qirindining minimal qalinligiga bog'liqligi;
- yetqazib charxlangan keskich bilan tokarlik ishlovi berishda qirindi qalinligi 0,005 mm dan kam emas, oddiy charxlangan keskich bilan ishlov berilganda bu miqdor 0,02 mm ni tashkil etishi (keskich bir–oz o‘tmaslashgandan keyin esa bu miqdor hatto 0,05 mm gacha etadi) natijasida ishchi o‘lchamga qirindi qalinligidan kamroq miqdorda o‘zgartish kiritma ololmasligi va bu qalinlikdan kichikroq bo‘lgan o‘lcham xatoligi olish kafolatini beraolmasligi;
- ishchining aybi bilan ishga yaroqsiz detal paydo bo‘lishi, ishlov berishda erishiluvchi aniqlik ma'lum darajada ishchining diqqat–e'tiboriga bog'liqligi;
- ko‘p vaqt sarflanishi natijasida mehnat unumdorligining past bo‘lishi;
- yuqori malakali ishchilar ishlab, yuqori ish haqqi to‘lanishi natijasida detallarning tannarxi yuqori bo‘lishligi.

Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarga ko‘ra bu usul, ko‘proq buyumlarni yakka va mayda seriyali ishlab chiqarishlarda keng qo‘llaniladi, shuningdek, tajribali ishlab chiqarishda hamda ta'mirlash va asbobsozlik sexlarida keng qo‘llaniladi.

Asosan bu usul og'ir mashinasozlikda ko‘proq qo‘llaniladi.

Aniqlikka avtomatik erishish usuli sozlangan dastgohlarda amalga oshiriladi va birinchi usulga xos bo‘lgan kamchiliklardan ancha xolisdir.


«O‘lchamlarni avtomatik olish usuli» bilan tanavorlarga ishlov berishda dastgohlar avvalambor shunday sozlanishi kerakki, tanavordan talab etilgan aniqlikka avtomatik ravishda erishilsin va h.k. hamda uning aniqligi ishchining malakasiga va diqqat–e'tiboriga bog'liq bo‘lmisin.

Tanavor (2) ni **a** va **b** o‘lchamlarini olish uchun uni frezalashda (1,a –rasm) frezalash dastgohi stolining balandligi bo‘yicha dastlab shunday o‘rnataladiki, qisqichning qimirlamas labi (1) tayanch yuzasi, freza aylanish o‘qi orasidagi

$K = D_{\phi p} / 2 + a$  masofada tursin. Shuningdek freza (3) yon yuzasi (stolning ko'ndalang yo'nalishida) qimirlamas labining vertikal yuzasidan **b** masofaga uzoqlashtiriladi.

Bu, dastlabki sozlashda birinchi tanavor uchun "Aniqlikka erishguncha ishlov berish va o'lchash" usulidan foydalaniladi. Shunday sozlashdan keyin, partiyadagi barcha tanavorlarga oraliq nazorat o'lchovlari qo'llanilmasdan ketma-ket ishlov beriladi (bu erda tanlab nazorat qilish istisnodir) va dastgoh stolini ko'ndalang va vertikal yo'nalishlarida qo'shimcha harakatlarsiz bajariladi. **k** va **b** o'lchamlar, ishlov berish jarayonida o'zgarmasdan qolsa, ishlanuvchi tanavorlar **a** va **b** o'lchamlari shu berilgan sozlangan dastgohlarda ishlov berilganda bir xilda saqlanadi.

Xuddi shuningdek, tanavor (2) (1,b –rasm) yon yuzasini kesib tushirishda ham, tanavor o'lchami **a** qisqich moslama (1) yon yuzasi bilan tayanch (4) yuzasigacha bo'lgan masofa bilan aniqlanadi. Tayanch (4) esa o'z navbatida keskich (3) ning keyingi siljishini chegaralab, tayanch (4) yuzidan keskich tig'i qirrasigacha bo'lgan masofa **b** ham ushlanadi.



### 5.1-rasm. O'lchamlarni avtomatik olish usuli bo'yichatanavorlarga ishlov berish

Bu o'lchamlar, shu sozlangan dastgohda doimiy bo'lsa, ishlanuvchi tanavor o'lchami **a** ning aniqligi o'zgarmas saqlanadi.

Shunday qilib, "Aniqlikka avtomatik erishish" usuli sozlangan dastgohlarda bo'lganligi uchun, talab etilgan ishlov berish aniqligi ishchi-operatorga bog'liqlikdan, birinchidan dastlab dastgohni sozlagan sozlovchiga, maxsus moslama tayyorlagan asbobsozga va tanavordagi baza va o'lchamlarni belgilab beruvchi, o'rnatish va

mahkamlash uslubini aniqlovchi hamda kerakli moslama loyihasini belgilovchi texnologga o'tadi.

«Aniqlikka avtomatik erishish» usulining afzallikkari quyidagilar:

- ishlov berish aniqligining ortishi va ishga yaroqsizlikning kamayishi;
- qirindi qalinligiga ishlov berishning bog'liq emasligi (chunki qo'yim, sozlangan dastgohda boshidan o'zi bu miqdordan ko'proq qilib tayinlanadi) va ishchi malakasiga va uning diqqat-e'tiboriga bog'liq bo'lmasligi;
- birlamchi rejalashga vaqt ketkazmaslik, sinov qirindi olib, keyin hosil bo'lgan yuzani o'lchab ovora bo'lmaslik, natijada ishlab chiqarish unumdoorligining oshishi;
- bundan tashqari tanavorga ishlov beruvchi ishchining ishonch va xotirjamlik bilan tayanchga tirab ishlashi; ishlov berish jarayonida ritmik harakatlarning kamayishi hisobiga ishchining kam charchab, yuqori unumdoorlikka erishishi. Yuqori malakali ishchini ratsional ishlatilsa, sozlangan dastgohlardagi ishlar, shogird-operatorlarga topshirilsa ham bo'lishligi;
- keyinchalik avtomatlashtirishni rivojlantirib borilsa bu vazifalar dastgoh-avtomatlar va dastur orqali boshqariluvchi dastgohlar zimmasiga yuklansa ham bo'lishligi;
- yuqori malakali ishchilar dastgohlarni sozlab, 8...12 tagacha bo'lgan dastgohlarni boshqarish bilan band qilinadi, natijada har xil sarflar kamayib, ishlab chiqarishning tejamkorligi ortishi kabilar.

Bu usulning afzalligidan seriyali, yirik seriyali va ommaviy ishlab chiqarishlarda keng qo'llaniladi.

Bu usulni mayda seriyali ishlab chiqarishda qo'llansa tejamkorlik jihatdan yaxshi natijalar bermaydi va o'zini iqtisodiy qoplay olmaydi, chunki partiyadagi detallar soni juda ham kam bo'lganligi sababli maxsus dastgohlar, moslama va asboblarni, shuningdek sozlash jarayonlarini qo'llash o'zini qoplay olmaydi, tayyorlangan detalning tannarxi juda ham yuqori bo'ladi; jiddiy texnologik tayyorgarlik, texnologik jarayonni puxta qilib yaratish va puxta sozlash sxemalarini qo'llash mayda seriyali ishlab chiqarish sharoitida amalga oshirilmaydi.

Ko‘rib chiqilgan har bir berilgan aniqlikka erishish usulida o‘ziga xos har xil sabablarga ko‘ra paydo bo‘luvchi sistematik va tasodifiy ishlov berish xtoliklari kuzatiladi. Bu esa, aniqlikka turli omillarning ta’sir etishi natijasidir

## **5.2. Zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarishida mahsulot sifatini oshirishni ta’minlashdagi muammoli masalallarini yechish usullari.**

Ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish alohida ishlab chiqarish muassasalarining ishlab chiqarish resurslarini birlashtirish orqali ishlab chiqarish makonlarini yaratish bilan bog‘liq. Bunday makonlarni tashkil etishda, avvalo ishlab chiqarish muassasalarida ishlab chiqarishlashni tashkil etish, ya’ni barcha ilmiy, amaliy, innovatsion, ma’muriy va xo‘jalik xizmatlarini boshqaruv bo‘limlarini yagona tarmoqqa birlashtirish, ularning Internet tizimiga chiqish imkoniyatlarini yaratish, ishlab chiqarsh muassasasida ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish, hujjatlar elektron almashuvini hamda ishlab chiqarish texnologiyalari negizida maxsus zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ishlab chiqish orqali ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur bo‘ladi. Hozirda bunday vazifalarni bajarishda avtomatlashtirilgan texnologiyalarini yaratish orqaligina ishlab chiqarish- resurslaridan foydalanishni tashkil etish mumkin. Ishlab chiqarish muassasasining yagona ishlab chiqarish-ta’lim muhitini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri ishlab chiqarish jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Ishlab chiqarishlarni tizimlashtirish ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni yengillashtiradi. Ishlab chiqarish portallarining yaratilishi ishlab chiqarishlarni mantiqiy tartiblash va tizimlashtirishga yordam beradi.

Yagona ishlab chiqarish muhitini yaratishda tahliliy tayyorgarlikning yuqori talablar darajasida bo‘lishi, mazmunning maqsadga muvofiqligi, ishlab chiqarishlarning tizimlashtirilishini ta’minlash ishlab chiqarish muhitini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuvni amalga oshirishni shart qilib qo‘yadi. Ishlab chiqarishni mazmuni birinchidan, ishlab chiqarish va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali imkoniyatlarini kengaytirishni, ikkinchidan, mustaqil rivojlana olish imkoniyatlarini oshirish, zamonaviy ishlab chiqarish

texnologiyalarini o‘zlashtirish va qo‘srimcha innovatsion resurslardan foydalanishni tashkil etish orqali ishlab chiqarish sifatini oshirish imkoniyatlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mashinasozlik ishlab chiqarish jarayonida innovatsiya salmog‘ini ortishi yangi ishlab chiqash resurslaridan foydalanishni taqozo etadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun yagona ishlab chiqarish portallarini yaratish lozim.

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda ishlab chiqarish mehnat unumdorligini oshirish ya’ni ishlab chiqarish jarayonini intensivlashtirish muammosi mashinasozlik fanlarining asosiy vazifalaridan biridir. Fan-texnikaning rivojlanishi tufayli ishlab chiqaruvchilarga beriladigan imkoniyatlar miqdori nihoyat darajada ko‘payib bormoqda. Bu ishlab chiqarishni an'anaviy usul va vositalar yordamida yetkazib berish esa murakkablashmoqda. Shunga qaramay, ko‘pgina ilmiy kashfiyot va texnika va texnologiyalarni o‘ziga xos tushuntirish va yetkazib berish jarayonini ancha osonlashtirishda o‘qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalangan holda darsni tashkil etish alohida o‘rin tutadi.

Oliy o‘quv yurtlarida mutaxasislik fanlarini samarali o‘qitish uchun kompyuter va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasiga asoslangan elektron didaktik materiallar, dasturiy vositalar, virtual laboratoriylar, uslubiy qo‘llanmalar yaratish va ulardan unumli foydalanishga katta axamiyat berilmoqda.

### **5.3. Zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarishida mahsulot sifatini oshirishni ta’minlashda interaktiv texnologiyalardan foydalanish.**

Interaktivlik tushunchasi. Interaktivlik deganda biz, faqatgina, biz o‘rganayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o‘rnatilgan muloqatni tashkil etish tushuniladi. Demak, Kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, Biz u yordamida kompyuter bilan muloqat o‘rnatamiz.

Umuman olganda interaktivlik bu muloqat tizimini tashkil etish bilan bog‘liq. Ya’ni, maqsadga ko‘ra tizim elementlari orasidagi axboriy ma'lumotlar almashinuvchi.Ushbu tushuncha ishlab chiqarish nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo‘llaniladi.

Interaktiv xizmatlar tushunchasi. Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko'rildigan manfaat mavjud bolsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya'ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi.


### **Nazorat savollari**

1. *Mashinasozlikda mahsulot sifatini oshirish muammolari qanday omillardan bog'liq?*
2. *Mashinasozlikda ishlov berish aniqligini ta'minlash muammolari qanday omillardan bog'liq?*
3. *Mashinasozlikda ishlab chiqarishining moslanuvchanligini ta'minlash muammolari qanday omillardan bog'liq?*
4. *Mashinasozlik ishlab chiqarishning optimal ko'rsatkichlari va ish rejimlarini ta'minlash muammolarini yechimi namalardan bog'liq?*
5. *Mashinasozlikda avtomatlashdirilgan texnologik jihozlarning avtomatik boshqarish sistemalari qanday tanlanadi?*
6. *Detallarga ishlov berish sifatini avtomatik nazorat qilish qurilmalarining ishslash prinsipi qanday?*

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Grady J.O. System Synthesis: Product and Process Design. CRC Press, <http://www.twirpx.com/file/1432875/>. London, UK, 2018. http://techmash.stankin.ru/.

## **6-Mavzu. Mashinasozlikda sun'iy intellektdan foydalanish.**



### **Reja:**

- 6.1. Kirish.
- 6.2. Mashinasozlik va sun'iy intellektning (AI) o'zaro bog'liqligi.
- 6.3. Intellektual mashinasozlikda sun'iy neyron tarmoqlar qo'llanilishi.
- 6.4. SNT asosida ishlaydigan mexanik nosozlik diagnostikasi
- 6.5. Aylanadigan mashinalar uchun SNT asosidagi aqlii diagnostika tizimi
- 6.7. SNT asosida mexanik loyihalash va optimallashtirish
- 6.6. SNTga asoslangan mexanik tuzilma, geometriya va tahlil bo'yicha modellashtirish

**Tayanch iboralar:** Sun'iy intellect, AI, Sun'iy neyron tarmoqlari, muhandislik, mashinasozlik, neyron tarmoqlari, intellectual boshqaruv

### **6.1. Kirish**

Sun'iy neyron tarmoqlari (SNT) deyarli barcha muhandislik sohalarida, jumladan, kompyuter fanlari, matematika va mashinasozlik sohalarida tobora ko'proq

foydalanimoqda. Muhandislik sohasida u moslashuvchan (adaptiv) dasturlash tizimi toifasiga kiradi. SNT umuman olganda axborotni qayta ishlashning yangi metodologiyasi. Uning asosiy tamoyili inson miyasi qanday ishlashiga asoslanib, axborotni qayta ishlashning asosiy xususiyatlarini ochishga qaratilgan ko'plab parallel, segmental va simulyatsiyaga asoslangan metodologiyalarni birlashtirgan zamonaviy nevrologiya tadqiqotlariga asoslanadi [2]. So'nggi tadqiqotlar [2-8] mashinasozlikda aqlii struktura, dizayn va optimallashtirishga asoslangan sun'iy neyron tarmoqlarning (SNT) sezilarli rivojlanishini ko'rsatadi. SNT - bu turli jarayonlar va ularning o'zgaruvchilari o'rtaсидagi o'zaro ta'sirlarni ifodalay oladigan murakkab kompyuter texnikasi. Texnologiyaning jadal rivojlanishi va qo'llanilishi joriy mexanik asoslangan uskunalarning umumiy tuzilishining murakkabligini oshirishga olib keldi. Bundan tashqari, u juda avtomatlashtirilgan hisoblanadi. Bugungi kunda SNN mashinasozlik sohasida kuchli mavqega ega bo'lib bormoqda. Uning texnologiyasi mashinasozlikning bir qancha sohalarida, jumladan, mashina dizayni, ishlab chiqarish va ekspluatatsiyasi va boshqalarda ilg'or bo'lib bormoqda. Ushbu mavzuda aqlii mashina nuqsonlarini diagnostika qilish, mexanik tuzilmani tahlil qilish, mexanik tizimlarni loyihalash va ularni optimallashtirish kabi vazifalar uchun mashinasozlik sohasida SNN dan foydalanish ko'rib chiqiladi.

## **6.2. Mashinasozlik va sun'iy intellektning (AI) o'zaro bog'liqligi**

Mashinasozlik texnologiyaning jadal rivojlanishi tufayli kundalik hayotda asosiy fan sifatida qabul qilinadi. Biroq, mashinasozlik texnologiyasiga asoslangan texnologiya bir qator kamchiliklarga ega, masalan, mexanik komponentlarning noto'g'ri ishlashidan kelib chiqadigan nomuvofiq tizimlar. Chiquvchi element ta'sir qilmaydi, chunki AI kiruvchi elementni tezda almashtira oladi va uni o'z vaqtida qayta ishlaydi. Ushbu xatolik uchun u samarali qarorlar qabul qilishi mumkin. Agar kirish ma'lumotlarining tabiatи murakkabroq bo'lsa, mashinasozlik texnologiyasida kiritilgan ma'lumotlarni chiqishga aylantirishning umumiy jarayoni qo'shimcha qiyinchiliklarga duch keladi. Qo'lda ishlaydigan axborot tizimi bilan taqqoslaganda, oddiy axborot

tizimi xatolarga ko'proq moyil bo'lishi mumkin. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun sun'iy intellektga asoslangan avtomatlashtirilgan qayta ishlash tizimlariga ehtiyoj ortdi. Mashinasozlikning kamchiliklari, agar AI va mashinasozlik birlashtirilgan bo'lsa, tuzatilishi oson bo'ladi.

### **6.3. Intellektual mashinasozlikda sun'iy neyron tarmoqlar qo'llanilishi**

Neyron tarmoqlari (NT) avtomatik ravishda o'rganish potentsialiga ega bo'lganligi sababli, ular o'tmishda aylanuvchi mexanizmlardagi nuqsonlarni tashxislashda qo'llanilgan. NT ning bu xarakteristikasi o'quv ma'lumotlaridan foydalangan holda nosozliklarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu qobiliyatga qo'shimcha ravishda, NT qiyin chiziqli bo'limgan muammolar turlarini hal qilish uchun ham ishlatalishi mumkin. Ushbu muammolarni tashxislash qiyinroq bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtida, mashinasozlikdagi nosozliklarni aniqlash uchun AI ga asoslangan turli xil texnologiyalar muntazam ravishda qo'llaniladi. Qoidaga asoslangan mulohaza yuritish, holatga asoslangan fikrlash va daraxt xatosiga asoslangan identifikatsiya AI ga asoslangan xatolarni aniqlashning odatiy usullaridir. Mutaxassislarga asoslangan mexanik nosozliklarni aniqlash tizimi asosiy konfiguratsiya va an'anaviy tizimning asosiy arxitekturasidan mutaxassislarga asoslangan holda qurilgan. U qo'lda amalga oshiriladigan holatlar ma'lumotlar bazasiga, nosozliklarni aniqlash uchun qoidalarga asoslangan ma'lumotlar bazasiga, turli xil turdag'i nosozliklar uchun ma'lumotlar bazasi diagnostika tizimiga, xatolarni mulohaza qilish uchun mashina bilimiga asoslangan ishlov berishga, xatolarni aniqlash jarayoni uchun tarjimonga, o'rganish tizimiga va mashina va inson o'rtaqidagi interfeys uchun tizim.

### **6.4. SNT asosida ishlaydigan mexanik nosozlik diagnostikasi**

Nosozlikni aqli ravishda aniqlash jarayoni nosozliklar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash bilan boshlanadi. Xususiyat chastotasidan olingan spektrlar uni ajratib olish uchun olinishi kerak. Xato xususiyatlarini ajratib olishning ushbu usullarini ikki guruhg'a bo'lish mumkin: statistik va modelga asoslangan usullar. U

ushbu mashinalardan olingan signalning har qanday shaklini boshqarishi mumkin bo'lgan bir qator algoritmlarga ega bo'lib, umumiy protsedura ko'rsatiladi. Boshqa NT lar qatorida asosiy komponentlar tahlili [Principal component analysis] (PCA) va Radial Basis Function Neyron Networks (RBFNN) qo'llaniladi. Nosozliklarni aqli identifikatsiyalash ko'pincha uskunada mavjud bo'lgan signallar va nosozliklar asosida chiqishlarni ishlab chiqaradigan neyronlarga kirishlarni kiritish orqali amalga oshiriladi. Foydalanuvchilarni sinovdan o'tkazish va yondashuvni o'rgatish uchun ushbu NT lardan foydalangan holda butun NT ni o'rganish kerak emas. Haqiqiy dunyodagi mexanik mashinalarning mexanik texnologiyasini o'lchash, odatiy bo'limgan nuqsonlarini aniqlash va texnologiyaning kelajakdagi pozitsiyasi haqida taxmin qilish uchun mashinasozlik texnologiyasida xatolikni aniqlash umumiyl ishda qiyosiy doimiy holat haqidagi ma'lumotlarga asoslangan asbob-uskunalar, doimiy signalni tekshirish va keyin uni ob'ektlarni aniqlash holati bilan birlashtirish qo'shimchalarga asoslanadi. Uning asosiy strategiyasi mashinasozlik bilan bog'liq bo'lgan o'tmishdagi tadqiqotlarda topilgan barcha texnologiyalarning eng so'nggi moslashuvlaridan foydalangan holda xatolardan qochishdir. Ba'zi xatolarning mavjudligi va ta'mirlashni tahlil qilish usullari sanoatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan mexanik ishlaydigan mashinalardagi xatolarni aniqlashni osonlashtiradi. Zamonaviy texnologiyaning rivojlanishi texnologiyani boshqarish jarayoniga asoslangan mashinasozlik asosidagi texnologiyada nuqsonlar yoki nuqsonlarni aniqlashga olib keldi. Xatoning asosiy alomatini xato sifatida tushunishning kaliti xatoni aniqlashdir. Mantiqiy asosga ega bo'lgan ramziy ekspert tizimi xatolarni aniqlashning standart usuli hisoblanadi. Biroq, bu tizim bir qator kamchiliklarni ochib beradi, jumladan, ma'lum bir bosqichga o'tishning mumkin emasligi, SNT ning o'z-o'zini o'rganish qobiliyati, tizimning chiziqli bo'limgan xaritalashga moyilligi, parallel ishlov berish qobiliyati va xatolarni aniqlashning murakkab tizimini ishlab chiqish hamda xatolarga tolerantlik. SNT-ga asoslangan xatolarni identifikatsiya qilish tizimi nuqsonning holatini uning belgilari asosida aniqlash uchun raqamli hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun kirishdan foydalanadi. Umuman olganda, u inson va mashinaga asoslangan modullar

o'rtasidagi interfeysdan, bilimlar bazasi diagnostikasi va fikrlashdan, axborotni qidirish modulidan va nihoyat, tizimni o'rganish modulidan iborat.

### **6.5. Aylanadigan mashinalar uchun SNT asosidagi aqlii diagnostika tizimi**

Aylanuvchi mexanizmlarning nosozliklarini aniqlashning butun yondashuvi so'nggi yillarda mashinasozlik sohasidagi uskunalarda nosozliklarni aniqlash senariysida ilgari surildi. Muvaffaqiyat uni amalda qo'llashda sezilarli iqtisodiy cho'qqiga chiqdi. Tavsiya etilgan yechim parrakli aylantiruvchi mashina muammolarini aniqlash uchun universal qo'llaniladigan neyron tarmoq identifikatsiya tizimidan foydalanadi. Identifikatsiya ikkita asosiy qismdan iborat. Parrak birinchi bo'lib, undan keyin dvigatel. Ushbu tizimning asosiy komponentini tebranishga asoslangan, haroratga asoslangan, shovqinga asoslangan va moyga asoslangan parametrlarni o'z ichiga olgan beshta kichik komponentga bo'lish mumkin.

### **6.6. SNTga asoslangan mexanik tuzilma, geometriya va tahlil bo'yicha modellashtirish**

Mexanik muhandislar xaritalash parametrini modal bo'lishi mumkin bo'lgan dizayn parametrlarini amalga oshirish uchun strukturani tahlil qilishdan foydalanishlari mumkin. Identifikatsiya qilish va xaritalash jarayoni uchun SNT ga asoslangan usullar asosan ilgari qo'llanilgan chekli elementlarni tahlil qilish (finite element analysis) usulini almashtirdi. O'quv parametrining o'rtacha yoki umumiy qiymati keyinchalik BPNN (Back Propagation Neural Network) ni o'qitish uchun chekli elementlarni tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlarning turli tuzilmalarida NT ning strukturaviy tahlil parametri tomonidan qo'llaniladi. Modal parametrlarni munosabatlarni xaritalash jarayoni bilan tushunish uchun strukturani tahlil qilish va dinamik dizayn jarayonlari qo'llaniladi. Mashinasozlik strukturasini tahlil qilish odatda shunday amalga oshiriladi. Yechimni hisobga olgan holda umumiy mexanizmni tahlil qilish juda murakkab bo'ladi. BPNN ni o'rgatish yoki ma'lumotlarning strukturaviy tahlili cheklangan elementlarga asoslangan protseduralarda qo'llaniladigan ikkita mexanizmdir. Ushbu tizim sun'iy neyron tarmog'ining kirishidan modal parametrlar va chiqishdan dizayn

parametrlari sifatida foydalanib, ikkalasi o'rtasidagi xaritalash aloqasini aniqlaydi va tahlil qiladi. Geometrik modellashtirishning toifalaridan biri bo'lgan murakkab sirtlarni modellashtirish, ayniqsa, "spline" funktsiyasini o'rnatish mexanizmidan foydalanadi. Bundan tashqari, umumiy tizimli dinamik dizaynni o'zgartirish uchun ham foydalanish mumkin. Bu usul har xil chegara sharoitlari bilan yanada murakkabroq bo'ladi. Uning kamchiliklarini o'zgartirish yanada qiyinroq. Ko'p sonli hisob-kitoblar va jarayonlar talab qilinadi. Mashinasozlik geometrik modellashtirishda SNT ning chiziqli bo'limgan xaritalash metodologiyasidan foydalanish bilan rivojlandi. Hisoblashning kirishi va chiqishi mos ravishda X va Y dagi zarracha sirtining koordinatalari hisoblanadi. SNT ning namunaviy to'plami ushbu koordinatlar yordamida o'qitiladi. Bu modellashtirishning egri yuzasi bilan ajralib turadi.

## **6.7. SNT asosida mexanik loyihalash va optimallashtirish**

Mashinasozlik sohasidagi zamonaviy tizimlar va mexanizmlar murakkab konstruktiv dizaynlarga ega. Mashinasozlik sohasidagi bu tizimlar qattiqlik, kuch va bosim kabi statik xarakteristikalarini va kuch, siljish, tezlik, tezlanish, chastota va tebranish kabi dinamik xususiyatlari tufayli murakkabdir. Matematikadagi hisob-kitoblar ushbu integral muammoning asosini beradi. Optimallashtirish masalalari hajmi, topologiyasi va ishlashiga ko'ra toifalarga bo'linadi. Matematik dasturlash asosida yaratilgan turli xil optimallashtirish usullari bunday optimallashtirish muammolarini hal qilish uchun yetarli emas. Hopfield NT o'ziga xos xususiyatga ega, uning maksimal energiyasi barqarorlikka intiladi. Bu xususiyat yuqorida aytib o'tilgan optimallashtirish xatoliklari shakllarini SNT energiya funktsiyasi yechimiga aylantirish imkonini beradi. Maqsad funktsiyasining boshlang'ich holatidan boshlab minimal nuqtasi dinamik SNT tizimining xususiyatlaridan biridir. Minimal nuqta optimallashtirish hisobini tugatish uchun SNT dan ham foydalanishi mumkin. O'z tadqiqotida mualiflar turli xil optimallashtirish muammolari uchun sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlardan foydalanishni muhokama qilganlar. Ushbu metodologiya tebranish tizimlari, kompozit tuzilmalar, 2D va 3D tuzilmalar va akustika kabi qator

sohalarda muammolarni optimallashtirish uchun qo'llaniladi. Bunda termoelektrga asoslangan muammoni qo'shilgan maydonga asoslangan optimallashtirish amalga oshiriladi. Bir vaqtning o'zida termal va mexanik maydon taqillatilishini boshdan kechirgan jismlar haqida fikrlar birlashtirilgan maydonlar deb ataladi. Ko'p ishlatiladigan materiallarga nisbatan yuqori kuch-og'irlik nisbatiga ega bo'lgan kompozit tizimlarga mos keladigan ma'lum raqamli qiymatlarni optimallashtirish va kashf qilish AI ga asoslangan tizimlarning yana bir qo'llanilishidir.

### **Nazorat savollari**

1. *Sun'iy intellekt nima?*
2. Mashinasozlik va sun'iy intellektning o'zaro bog'liqliklari mavjud?
3. *Mashinasozlikda sun'iy neyron tarmoqlarining qo'llanilishi.*
4. *Mashinasozlikda loyihaash va optimallashtirilshda SNT ning qo'llanilishi.*
5. *Mashinasozlikda mexanik nosozliklarni sun'iy yordamida aniqlash.*

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alhakeem, M. R. H., & Ilham, D. N. (2022). Application of Artificial Intelligence in Mechanical Engineering. *Brilliance: Research of Artificial Intelligence*, 2(3), 177-181.
2. Zajačko, I., Gál, T., Ságová, Z., Mateichyk, V., & Wiecek, D. (2018). Application of artificial intelligence principles in mechanical engineering. In *MATEC web of conferences* (Vol. 244, p. 01027). EDP Sciences.
3. Alhakeem, M. R. H., & Ilham, D. N. (2022). Application of Artificial Intelligence in Mechanical Engineering. *Brilliance: Research of Artificial Intelligence*, 2(3), 177-181.

## **7-Mavzu. Mahsulot sifatini boshqarish tizimlari va prinsiplari.**

### **Reja:**


1. Mashinasozlik mahsulotining ta’rifi va uning asosiy ko‘rsatkichlari.
2. Mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari va raqobatbardoshligi o‘rtasidagi bog‘lanish.
3. Sifatni boshqarish tizimini rivojlanish tarixi.

**Tayanch iboralar:** Bozor iqtisodiyoti, ob’ektiv ko‘rsatkichlar, sifatni oshirish, sifat, ehtiyojlar, mahsulot sifatini boshqarish.

### **7.1. Mashinasozlik mahsulotining ta’rifi va uning asosiy ko‘rsatkichlari.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muxitini mavjudligi sifat va uni boshqarish muammolariga katta axamiyat berishga majbur qiladi. Mamlakatimizni kuchli rivojlangan davlatlar qatoriga kirishda raqobat, kurash-sifatni oshirish dasturlarini ishlab chiqarishga sabab bo‘ladi. Mahsulot va xizmatlar sifatini baholash uchun ob’ektiv ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish zaruriyati tug‘iladi. Sifat va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasida to‘g‘ri bog‘lanish mavjud. Sifatni oshirish-harajatlarni kamaytirib, bozor ulushi hamda ishlab chiqarish samaradorligiga erishishga ko‘maklashadi. Yuqoridaqilar bo‘lajak menejerlardan sifatni boshqarish tizimi asoslari sohasiga oid chuqur ilmiy va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini talab etadi.

Sifat - murakkab va dinamik tushunchalar toifasiga kiradi. Sifat ob’ektlari nafaqat mahsulot yoki xizmatlar bo‘lmasdan ishlab chiqarish va sotish sohalaridagi barcha kompleks tushunchalar bo‘lib hisoblanib va uni baholash mumkin (7.1-rasm)



### 7.1-pacm. Sifatga talablar qo'llaniladigan ob'ektlar.

Sifatning dinamik toifadaligini mahsulot va xizmatlarga talablarni, ehtiyojlarni juda tezlik bilan o'zgarishi bilan tushuntirish mumkin. Gohida bugun uchun muvofiq bo'lgan mahsulot, ertaga sotib oluvchilarning ehtiyojini qoniqtirishi uchun yetarli bo'lmasligi ya'ni yetarli sifat darajasida bo'lishi mumkin.

Sifatga ta'rif ISO 8402 xalqaro standartida keltirilgan bo'lib, u quyidagicha:<sup>13</sup>


**Sifat** – ob'ektning uning o'rnatilgan va kutilayotgan ehtiyojlarni qanoatlantiruvchi xususiyatlariga taalluqli tavsiflar (alovida bayon etilayotgan va qaralayotgan jarayon, mahsulot, tashkilot, tizim yoki ularning ixtiyoriy kombinatsiyalar)ining majmuasidir.

Ob'ekt sifatini aniqlash uchun quyidagilar zarur:

- Ehtiyojlarni tahlil qilish asosida ob'ektning talab etilayotgan tavsiflarini o'rnatish.
- Ob'ektning haqiqatdagi tavsiflarini aniqlash.
- Ob'ektning talab etilgan va haqiqatdagi tavsiflarini solishtirish lozim.

Ehtiyojlarni o'rnatish uchun ularni tavsiflash lozim. Sifatni aniqlashda o'rnatilgan va kutilayotgan ehtiyojlarga bo'linadi (7.2-rasm).

<sup>13</sup> Ta'rif ISO 8402:1994 "Sifatrni boshqarish va sifatni ta'minlash. Lug'at." xalqaro standartiga muvofiq keltirilgan.



### 7.2-rasm. O'rnatilgan va kutilayotgan ehtiyojlar

Aks ettirish tamoyili jarayon sifatini natija sifatiga ko'chirish (aks ettirish) bilan ifodalanadi. Shunday qilib, yakuniy natija sifatiga o'zaro faoliyatda bo'lgan uning jarayonlarini shakllantirish ta'siri usulida qo'llaniladi.

Tizimning elementlari bo'lgan barcha jarayonlar ishchi holatda bo'lishi ta'minlanadi. Bu tizimni qurish sifati va uning ishchi holati mexanizmi uni tashkil etuvchi jarayonlar sifatida aks etadi (7.3-rasm). Natija sifati tizim, uni birlashtiruvchi jarayonlar sifati vorisligi asosida amalga oshiriladi.



### 7.3-rasm. Sifatni aks ettirish tamoyili

7.3-rasmdan ko'rinish turibdiki, yakuniy natija (mahsulot, xizmat) sifati jarayonlar (xarid qilish, marketing, loyihalashtirish, ishlab chiqarish va x.k. jarayonlar) sifati vorisligida va tashkiliy-boshqaruv tizim sifatida amalga oshiriladi.

Sifatni aks ettirish tamoyili sifat menejmentining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yakuniy mahsulot, xizmatning sifatini boshqarish barcha tizimlari sifatini

boshqarish orqali amalag oshiriladi. Tizim sifati jarayoni sifatida va o‘z navbatida natija sifatida aks ettiriladi.

**Sifatni boshqarish** – sifat sohasidagi siyosat, maqsadlar va javobgarliklarni aniqlab hamda ularni sifat tizimi doirasida sifatni rejalashtirish, sifatni operativ boshqarish, sifatni ta’minlash va sifatni yaxshilash vositalari yordamida amalga oshirishni boshqaruvchi funksiyalarini bajarish jihatlaridir.

**Sifat tizimi** – sifatni boshqarishni amalga oshirish uchun zaruriy tashkiliy tuzilma, usullar, jarayonlar va resurslar majmuasidir.

“Sifatni boshqarish” tushunchasiga quyidagi jihatlar kiradi:

1. Umumiy jihatlar:

- yuqori boshqaruv darajasida rejalashtirish;
- faoliyatlarni tizimlashtirish va usullar, bayonnomalar, yo‘riqnomalar ko‘rinishida hujjatli rasmiylashtirish;
- barcha ishlab chiqarish resurslarni va hamma xodimlarni jalb qilish;
- sifatni boshqarishda standartlashtirishda va shuningdek, xalqaro standartlardan keng foydalanish;
- doimiy tekshirish, aks aloqalarni o‘rganish va tuzatish harakatlari;
- xodimlarni sifatni boshqarish usullari va tajribalari bo‘yicha uzluksiz o‘qitish.

2. Texnikaviy jihatlar:

- ishlab chiqarishda so‘ngi jahon standartlari yoki uning darajasini oshiruvchi standartlardan foydalanish;
- zaruriy nazorat vositalardan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlarining har bir bosqichida mahsulotni nazorat qilish;
- qurilmalarni tekshirish;
- barcha jarayonlarni boshqariluvchanligini va har bir mahsulotning kuzatuvchanligini ta’minlash;
- texnologiyani doimiy ravishda ko‘rib chiqish.

### 3. Iqtisodiy jihatlari:

- sifat iqtisodiyotini boshqarish;
- sifat uchun mablag‘larni rejalashtirish (sifat tizimini ishchi holati, xodimlarni o‘qitish, bozorni o‘rganish, nazorat, tekshirish, ishlab chiqarishni jihozlash, mustaqil ekspertlarni jalg qilish, xodimlarni rag‘batlantirish va x.k.) uchun xarajatlar.

### 4. Boshqaruv jihatlari:

- sifat sohasidagi siyosat aniqlash va har bira xodimning vakolati
- hamda muayyan majburiyatlarini taqsimlash;
- turli xil sifatni boshqarish usullari va tajribalari hamda
- usullarni bajarishni tekshirishdan foydalanib rasmiylashtirilgan sifatni boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish;
- yillik budjet rejasida sifat uchun zaruriy mablag‘lar
- smetasini rejalashtirish;
- so‘ngi ilmiy-texnik ishlanmalar va talablardan foydalanib
- ishlab chiqarishni mo‘ljallash;
- ekologiya va mehnat xavfsizligi me’yorlari bajarilishini
- nazorat qilish.

Mahsulot sifatni oshirish va jarayonlarni samarali boshqarishni ta’minalash uchun xalqaro amaliyot tajribalari natijalariga ko‘ra korxonada sifatni boshqarish tizimini joriy etish tavsiya etilgan. Bu tizim boshqarilishi murakkab bo‘lagan va dinamik ob’ektlarni boshqarish uchun qo‘llanildigan maqsadli dasturiy-turning integrallashgan boshqaruv mexanizmlariga taalluqlidir. Bunday sifatni boshqarish mexanizmlarini tashkillashtirish ishlab chiqarish-sotishning barcha elementlarini ishchi holatiga muvofiq, barcha turdagi yo‘qotishlarni kamaytirishga mo‘ljallangan.

Sifatni boshqarish tizimini joriy etishda sifatni ta’minalash va oshirishga bog‘liq amalga oshiriladigan bracha boshqaruv funksiyalarini tashkiliy birlashtirish maksad sifatida qaraladi. Bunday tuzilma doirasida sifat va ishlab chiqarish samaradorligi, io‘lab

chiqarish mehnatini oshirish, yangi mahsulotni ishlab chiqish va uni o‘zlashtirish, u bilan tadqiqotlarga aloqador barcha ishlarni muvofiqlashtirish ko‘zda tutiladi. Bundas tuzilma sxemalari tashkilotning barcha iqtisodiy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha hamma xodimlarning javobgarligini oshirish uchun tashkiliy tuzilmani yaratishga imkon yaratadi.

Mahsulot sifatini boshqarish GOST 15467-79<sup>14</sup> standartiga muvofiq quyidagicha ta’riflanadi:

***Mahsulot sifatini boshqarish*** – mahsulot sifatiga ta’sir qiluvchi sharoitlar va omillar ta’siri maqsadiga qaratilgan va tizimli sifat nazorati yo‘li bilan amalga oshiriladigan, mahsulot, uni ishlab chiqish va ekspluatatsiya yoki iste’mol sifatini kerakli darajadaligi ta’minalash va qo‘llab-quvvatlash hamda o‘rnatishdir.

Mahsulot sifati mohiyatining yanada to‘liq tavsifini quyidagi o‘zaro bog‘liq tushunchalar bilan aniqlash lozim:

- mahsulotning texnikaviy darjasи;
- sifat halqasi;
- sifat ko‘rsatkichi;
- mahsulotning raqobatbardoshligi.

***Mahsulotning texnik darjasи*** - baholanadigan mahsulotning texnik takomillashganligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning qiymatlarini mos ko‘rsatkichlarning asos qiymatlari bilan taqqoslashga asoslangan, mahsulot sifatining nisbiy tafsilotidir.

***Mahsulot sifati ko‘rsatkichi*** - mahsulot sifatiga kiruvchi bitta yoki bir necha xossasining miqdoriy tavsifi, uning yaratilish va ishlatilishi yoki iste’molidagi muayyan sharoitlarga qo‘llanilishini qurilishiga aytildi.

Mahsulot, ham muayyan ehtiyojga mos kelish darjasи bo‘yicha, ham shu ehtiyojni qanoatlantirishdagi harajatlar bo‘yicha raqobatlanuvchi mahsulotlardan uning ajralib

---

<sup>14</sup> Ta’rif GOST 15467-79 “Mahsulot sifatini boshqarish. Umumiy tushunchalar. Atama va ta’riflar” standartining asliga to‘g‘ri RST Uz 622-94 “Mahsulot sifati. Asosiy atamalar va ta’riflar” O‘zbekiston davlat standartiga muvofiq keltirilgan

turishini ifodalovchi mahsulotning tavsifi uning *raqobatbardoshligi* deb ataladi.

## **7.2. Mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari va raqobatbardoshligi o‘rtasidagi bog‘lanish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib va takomillashib borishi bozor mexanizmini tobora murakkablashtiradi. Bu hol iste’molchining ehtiyoji, talabi, didi va dunyoqarashining o‘zgarishi hamda qonunlarning o‘zgarishi sharoitida ishlab chiqaruvchilarning bozor tizimiga nisbatan proporsional xarakati kuzatiladi. Unda ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi keskin iqtisodiy raqobatdan tashqari sotuvchi va haridor o‘rtasida tovar bahosi va sifatini kelishishning o‘ziga xos raqobati ham vujudga keladi. Iste’molchi-ishlab chiqaruvchining bozordagi ratsional xarakatlari erkin raqobat sharoitida tovarlarning narxi va sifatini optimallashtirish imkoniyatini beradi. Iqtisodiyotda tovar va iste’molchilar ehtiyojining diversifikatsiyalashuvi haqli bir savolni vujudga keltiradi, ya’ni bozorda rastaga chiqqan yangi tovar mahsuloti iste’molchi ehtiyojining sababimi, yoki u yangi iste’molni tug‘diradimi?

Bozordagi yangi innovatsion mahsulot iste’molchining ehtiyojiga qarab ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklif etilgan degan fikr xato bo‘ladi. Sababi, ishlab chiqarishning asosiy maqsadi ehtiyojni qondirishdan ko‘ra ko‘proq foydani oshirishga xizmat qilishga yo‘naltiriladi. Shunday ekan, yangi innovatsion mahsulot iste’molchilar hohishini emas balki, ishlab chiqaruvchilar hohishining, ya’ni raqobatning natijasidir. Ishlab chiqaruvchi mahsulot sifatini iste’molchi shunday hohlagani uchun emas, raqobatda bozordagi muxim o‘rnini boy bermasilik uchun oshirishga intiladi. Bu hol bozor mexanizmini rivojlanishiga iste’moldan ko‘ra ko‘proq raqobat ta’sir etishini ko‘rsatadi. Aynan shunday raqobat rivojlangan bozorga ega davlatlarda mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Raqobat kurashida asosiy richag korxonalar uchun mahsulot sifati bo‘lishini e’tiborga olib aytish kerakki, sifat menejmentini korxonalarda samarali faoliyatini ta’minlash iqtisodiyotning dolzarb masalasidir. Rivojlangan davlatlarning iqtisodiy muvaffaqiyati importga nisbatan eksport salmog‘ining bir necha barobar kattaligiga

bog‘liq. O‘z mahsulotini eksport qilayotgan mamlakatlarda shu tovarning jahon bozoridagi mavqeい yuqori degan xulosani beradi. Bu xulosaga erishish uchun mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonada sifat menejmenti tizimi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan va xalqaro standartlarga javob beradi.

Mamlakatimizda ham yuqori iqtisodiy samaraga erishishning eng muqobil varianti milliy korxonalarda sifat menejmenti tizimini samarali tashkil etish va tovarlar sifatini keskin oshirish zarur. Buning uchun masalani ikki jihat e’tiborni tortadi.

Raqobat - bu korxonalarining bozorni adolatli bo‘lib olish uchun xarakati va kurashi hisoblanadi. Adolatli deganda, sog‘lom raqobtalashuv natijasida real haridorlar ishonchini qozonish tushuniladi. Raqobatning turlari juda ham ko‘p bo‘lib, ularni turli nuqtai nazar yordamida har xil turkumlash mumkin. Eng keng tarqalgan raqobat turlari ***narxli va narxsiz*** raqobat turlaridir.

Narxli raqobat - bu ikki va undan ortiq ishlab chiqaruvchilarni sotilayotgan mahsulotning narxini arzonlashtirish hisobiga ko‘proq sotish tushuniladi.

Narxsiz raqobat korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish natijasida iste’molchilar ishonchini qozonishga qaratilgan. Narxsiz raqobatning o‘ziga xos jihat aynan shu bozor mexanizmi g‘oyasidan samarali foydalanishdir. Ya’ni iste’mol va raqobat yuqori bo‘lgan bozorda mahsulotni boshqalar mahsulotidan sifatini biroz oshirish natijasida iste’molchilar diqqatini jalb qilish bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, "raqobatbardoshlik" tushunchasi "raqobat" tushunchasining bir qismidir. Agar firma bozorda muvaffaqiyatsiz raqobat qilayotgan bo‘lsa, uning mahsuloti raqobatbardosh emas.

**Raqobatbardoshlik — mazkur bozorda mavjud eng yaxshi o‘xhash ob’ektlarga nisbatan aniq ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi ob’ekt xususiyatidir.**

Shu bilan birga raqobatbardoshlik — aniq bozor sharoitlarida boshqalar bilan musobaqada chidash imkoniyatidir. Raqobatbardoshlik marketing tadqiqotlari natijalari bo‘yicha aniqланади. U tovarning ham aniq ijtimoiy ehtiyojga moslik darjasи, ham uni

qondirishga sarflangan xarajatlar bo‘yicha uning raqib tovaridan farqini ifodalovchi tavsifidir.

Iste’molchi nazarida yuqoriroq sifati bilan ajralib to‘rgan buyumlar raqobat ustunligiga egadir. Ammo, bunday yondashishda mazkur mahsulotni sotib oladigan xaridor uchun mutlaqo ahamiyati yo‘q bo‘lsa ham ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazarida muhim bo‘lgan mahsulotni tayyorlash mehnat sig‘imliligi, material sig‘imliligi, energiya sig‘imliligi, buyumlar ishlab chiqarishning texnologikligi, konstruksiyasining muhim xosiyatlari chekkada qolib ketadi.

Tovar raqobatbardoshligining asosiy tashkil etuvchisi uning iste’mol xususiyatlari va narxidir. Lekin tovarning bozor istiqbollari faqat sifat va ishlab chiqarish xarajatlariga bog‘liq emas. Tovarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligi sabablari ta’minlovchining reklama faoliyati, uning nufuzi, texnikaviy xizmatning taklif etilayotgan darajasi kabi boshqa notovar omillar bo‘lishi mumkin.

Lekin raqobatbardoshlikni ta’minalash bo‘yicha korxona faoliyatining ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan jihatlari qanchalik muhim bo‘lmisin, asos — **sifat, narx va texnikaviy xizmatdir**.

Mahsulot sifatini korxonalarda boshqarish va tashkil etish masalalarining bir jihatni marketing faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari bozor talablari asosida ishlab chiqiladi. Marketing faoliyati orqali ishlab chiqilishi rejalashtirilgan mahsulotning sifatiga bo‘lgan bozor talabi o‘rganiladi va u ham avvaldan rejalashtiriladi. Marketing tadqiqotini o‘tkazadigan mutaxassislar savollar anketasiga mahsulot sifati va narxiga oid savollarni kiritadilar hamda mahsulotni ishlab chiqarishda narx yoki sifat ustunligini belgilaydilar. Agar iste’molchilar pastroq sifatli mahsulotni arzon narxga sotib olishga tayyor bo‘lsalar, sifat darajasi bozor talabiga moslashtiriladi.

Marketing konsepsiyasiga binoan maqsadli bozor ehtiyojlari va talablarini aniqlash - **bu tovar sifatiga bog‘liq** degan fikrlar ham mavjud. Ya’ni, korxonalar o‘zlarini tomonlaridan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatiga qarab, maqsadli bozorni

tanlaydilar. Lekin bu fikr amaliyotga to‘g‘ri kelmaydi. Sababi tovar iste’molchini emas, iste’molchi tovarni tanlaydi. Maqsadli bozorni aniqlash korxona imkoniyatlari doirasida amalga oshiriladi va shu bozordagi tovar sifati ham iste’molchilar hohishidan kelib chiqib rejalashtiriladi. Agar tovar sifati rejalashtirilib so‘ng maqsadli bozor tanlansa, tovar o‘z iste’molchilarini topa olmasligi mumkin. Shu sababli, maqsadli bozorni tanlashda korxonalar o‘z imkoniyatlarini, bozor talab qilgan sifat darajasini va xarajatlarini taroziga solib, optimal variantni aniqlaydilar. Mazkur fikrlardan ko‘rinadiki, tovar sifatini raqobatli bozorda aniqlashni bir qator o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- Bozorlarda marketing tadqiqotlari o‘tkaziladi va tahlil etiladi;
- Xulosalarga qarab maqsadli bozor tanlanadi;
- Maqadli bozorning marketing strategiyasi ishlab chiqiladi. Unda raqobat usuli tanlanadi. Agar narxsiz raqobat qo‘llanilsa:
  - Iste’molchilari ehtiyojini qondirish uchun sifat rejalashtiriladi va uni boshqarish ishlari tashkil etiladi.

Sifatni rejalashtirish korxonadan mablag‘ va xarajatlarni talab etadi. Har qanday ko‘zlangan mahsulot sifatiga erishish sifat va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasidagi bir qator muammolarni hal etib olishni talab qiladi. Muammolarni aniqlanishi esa korxonaning bozordagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Bu muammolar quyidagilardan iborat:

- Korxonaning zararsizlik nuqtasi mavjudmi?
- Zararsizlik nuqtasida rejalashtirilgan mahsulot sifatiga erishsa bo‘ladimi?
- Rejalashtirilgan mahsulot sifatini o‘rnini qoplaydigan boshqa sifat darajalari bo‘yicha variantlar mavjudmi?
- Agar shunday variantlar mavjud bo‘lsa, ular o‘rtasidagi xarajatlarning farqi musbatmi yoki manfiymi?
- Tanlangan mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasida qanday proporsional bog‘liqlik bor?
- Tanlangan sifat oshirilganda samaradorlik ortadimi yoki kamayadimi?
- Agar ortsa, uning oxirgi nuqtasidagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun korxona imkoniyatlari yetarlimi?

- Agar kamaysa, uning optimal yechimi necha qiymatga teng?
- Mahsulot sifatining qaysi darajasida ishlab chiqarish samaradorligi unga to‘g‘ri proporsional bog‘liqlikda bo‘ladi?

Shu kabi savollar o‘z yechimini topishi korxona optimal sifat darajasini aniqlagan va raqobatga tayyor bo‘ladi. Bunda ishlab chiqarish samaradorligi va sifat bitta nuqtada muvozanatlashganligini kuzatish mumkin.

Mahsulot sifati bozordagi raqobatga bilvosita ta’sir etishi ham mumkin. Bunda sifatni tasdiqlovchi hujjatlar raqobat kurashida tayanch bo‘ladi ammo u mahsulot sifatini belgilangan standartlarga muvofiq kelgandagina amal qiladi. Sifatni tasdiqlovchi asosiy xujjatlar bo‘lib, muvofiqlik sertifikatlari va xalqaro standartlashtirish tashkilotining sifat sertifikatlari bo‘lib xizmat qiladi. Bunday sertifikatlarning mavjudligi korxonalarga o‘z mahsulotini bozorda raqobatchilarga nisbatan ishonchli sotuvida va eksport qilinishadi qo‘l keladi. Sifat sertifikatlarining mavjudligi iste’molchilar tomonidan ishlab chiqaruvchi tomonidan taklif etilgan mahsulotga nisbatan ishonch tuyg‘usini shakllantiradi. Ayniqsa, xorijiy hamkorlar bilan kelishuvda, dillerlar geografiyasining kengayishida ISO sertifikatlarining o‘rni juda ham muxim. Ya’ni, xalqaro sertifikatlar shartnoma tuzish uchun eng muxim xujjatlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘zini xurmat qilgan har bir korxona tovar va uning sifat tavsiflarini muntazam takomillashtirishga xarakat qiladi.

### **7.3. Sifatni boshqarish tizimini rivojlanish tarixi**

Xalqaro standartlar asosida sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilishda bajarilayotgan ishlarni yanada oydinlashtirish uchun sifat tizimining tub mohiyati hamda uning evolyusion paydo bo‘lishi to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Eng avvalo sifatni boshqarish tizimi sifatli mahsulotlar tizimi sifatida ko‘rilmasligini ta’kidlash o‘rinli.

Analitiklarning izohlari bo'yicha sifat tizimini "korxona" deb atalmish organizmning muhim bir tashkil etuvchisi deb qaralishi mumkin. Nerv yoki qon aylanish tizimi organizm hayotiyigini belgilashda qanday o'rin egallasa, sifat siyosati nuqtai-nazaridan sifat tizimi shu kabi ahamiyatga ega hisoblanadi. Tizim sifat siyosati belgilangan tamoyildan har qanday jiddiy chetlashuvlarni tezkor ta'sirchan oldini olish va keng qamrovlilik xususiyatlariga ega bo'lishi lozim sanaladi.

Eramizdan avvalgi 2150 yildan boshlab sifat to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga olib borish tarixchilar tomonidan qayd etilgan. Bobilning miloddan avvalgi 1792-1750 yillardagi shohi Xammurapiningadolatpesha qonunlari majmui, undan ham qadimroq shoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112-2094 yillar)ning qonunlari. Xammurapi 229 kodeksidan bizga ma'lumki, qurilgan bino va inshoatlarning buzilish holatlari yuzaga kelsa va buning natijasida odamlar shikastlansa yoki bino tomonidan biron zarar yetkazilsa, quruvchilar og'ir jarimalarga duchor qilinar, masalan: biron odam nobud bo'lsa, binokor qattiq jazolanar, hattoki qatl qilinar edi.

Bunga o'xshash tamoyillar Finikiyaliklarda ham uchrar edi: Finikiya sifat nazoratchisi (auditori) belgilagan sifat talabdaridan chetlashgan, yo'l qo'ygan xatosi uchun boshqa qaytarilishining oldini olish maqsadida ishlab chiqaruvchining qo'lini kesish jazosini buyurar edi.

Turkiyada shox Boyazid II, Ixtisabi, Bursa xukmronligi davrida buyoqlarning rangi, joylashishi, tovarlar sifati bo'yicha turli farmonlar chiqarilgan. Ba'zan bu farmonlarda muayyan qoidalarni buzganlik uchun jazolar ham belgilanganligining shohidi bo'lish mumkin.

Xitoy imperatorlari, ishlab chiqaruvchi va tovarlarni keyingi kuzatuvchanligini ta'minlash maqsadida, ishlab chiqaruvchilardan o'z tovarlariga muhr bosishlarini talab qilar edilar. Agar tovar qo'yilgan talablarga javob bermasa, jazo qo'llanilar edi (ko'p hollarda o'lim jazosi). O'sha davrlarda ham sifat va nav (sort) masalalariga jiddiy e'tibor berilgan. U davrlarda buyum va tovarlar navlarga bo'linmagan bo'lsa ham ishlab chiqilgan davlat, hudud ba'zan ustaning nomi bilan bog'lab sotuvga chiqarilgan

(Iroqi Sovun, eron gilami, xitoy ipagi va x.k.). ishlab chiqaruvchilar “Sifat” mehnat talab etishini, kam mehnat bilan yuqori darajadagi sifat olish mumkin emasligini yaxshi anglaganlar.

O‘rtalardan beri Buxoroda viqor bilan turgan Minorai Kalon qurilishiga oid quyidagi rivoyat mavjud: Amir o‘sha davrning eng mashhur usta binokorini o‘z oldiga chaqirib, uch yil ichida uning 7- avlodi davrida mustahkam qad ko‘tarib turadigan minora qurishni buyuradi. Usta bu vaqt kamligini harchand tushuntirishga harakat qilmasin, amir qarorini o‘zgartirmaydi. Usta oxiri rozi bo‘lib, ishni boshlaydi. Bir yildan ortiq vaqt poydevorni ishlashga ketadi. Bir yildan so‘ng esa usta dom-daraksiz yo‘qoladi. Oradan bir necha yil o‘tgach, usta yana paydo bo‘ladi va amirning huzuriga kelib, qochib ketganligi sababini quyidagicha tushuntiradi – “Minoraning yuqori sifatdagi mustahkamlikga ega bo‘lishi, poydevorning tabiiy cho‘kish davri tugagandan keyingina asosiy qism qurilishi amalga oshirilishini taqozo etadi. Siz belgilagan muddat ichida qurilgan minora 7 avlod emas, hatto 3 avlodga ham yetib bormaydi. Lekin u vaqtda Siz buni qabul qilmasligingiz tabiiy bo‘lgani sabab men qochib ketdim. Endilikda poydevor turg‘un o‘rin egalladi va uning ustiga qurilgan minora bir necha asr xizmat qiladi”. Amir uning mardligiga tan berib gunohini kechiradi. Darhaqiqat minora xanuzgacha mustahkam.

Sifat masalasiga ahamiyat kuchayish davri XIX asrdan boshlanib, shu davrlardan boshlab ishlab chiqaruvchilar o‘z tovarlariga tamg‘a (marka) bosishar va bundan o‘ta faxrlanishar edilar.

Hozirgi zamon sifat falsafasining shu kunga qadar bo‘lgan rivojlanishi 4 ta o‘zaro kesishuvchi va davomiy hisoblanuvchi fazalarga bo‘lib ko‘riliши mumkin:

- Yaroqsizini ajratib olish fazasi;
- Sifatni boshqarish fazasi;
- Sifatni doimiy oshirish fazasi;
- Sifatni rejalashtirish fazasi.

***Yaroqsizlikni ajratib olish fazasi.*** Ushbuga oid davrda hunarmandlar va ustalar o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida uni tayyorlash uchun tarkibiy bo‘laklar va buyumlarni bir-biriga moslashtirib emas, balki tasodifiy, duch kelganini qo‘llashni joriy etganlar. Ya’ni, buni o‘zaroalmashuvchanlik tarzida ko‘rish mumkin. Bunda turli kalibrler, o‘lchovlardan foydalanilgan. Mos kelmaganlari yaroqsiz (brak) sifatida chiqarib tashlangan.

Mazkur usulda keng miqyosda mahsulot ishlab chiqarish XIX asrning 70 yillariga to‘g‘ri keladi. Uning ilk namoyondalari Semyuel Kolt zavodi hisoblanadi. Keyinchalik XX asrning boshlarida Genri Martin Leland (“Kadillac” firmasi asoschisi) va Genri Ford bu usulga o‘tishni joriy etganlar. G.Leland avtomobilsozlikda birinchilardan bo‘lib “o‘tuvchi” va “o‘tmaydigan” kalibrлarni qo‘llay boshlagan.

1908 yil Britaniya avtomotoklubi ekspertlari tasodifiy ravishda Angliyaga yuborilgan “Kadillac” avtomobillarining partiyasidan 3 tasini ajratib olib, ularni oxirgi murvatigacha yoyib tashlaganlar. Barcha detallarni bir joyga to‘plab, ularning ba’zilarini sotuvga yuborilgan ehtiyyot qismlari bilan almashtirib, avtomobillarni yana qaytadan yig‘ganlar. Ikkita avtomobil birinchi urinishdayoq ishga tushgan, bittasi esa ikkinchi urinishda ishga tushgan. Avtomobillar sifati bir xil darajada ekanligi isbotlangandan so‘ng, avtoklub “Kadillac” firmasini maxsus diplom va “Standartlashtirilganligi uchun” yozuvli kumush kubok bilan taqdirlagan. Shundan keyin “Kadillac” avtomobillarida firmanın gerbi tushirilgan belgida “Standart of the world” (“Jahon uchun namuna”) yozuvi paydo bo‘lgan.


Ko‘pgina mamlakatlarda shiddatli iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda mahsulot sifati muammolariga nisbatan munosabatlar jiddiy ijobjiy tomonga o‘zgartirila boshlanib, tabiiy fanlar bilan bir qatorda sifatni boshqarishga ham ilmiy yondoshila boshlandi.

1905 yilda birinchi sifatni boshqarish tizimi - Teylor tizimi paydo bo‘ldi. U buyum (detal)lar sifatiga dopusklar ko‘rinishida talablarni o‘rnatib, alohida olingan har bir buyumning sifatini boshqarish tizimini yaratdi. Teylor tizimining amaldagi

muvaffakiyatini ta'minlash borasida sifat sohasida ilk mutaxassislar - inspektorlar faoliyat olib bora bosladilar.

**Sifatni boshqarish fazasi.** Mazkur rivojlanish fazasi oldingi asrning 20-yillaridan boshlanadi. Uning asosiy maqsadi oldingi fazalar shakllariga xos nomutanosibliklarni garchand butkul bartaraf etilmasa ham, salmog‘ini kamaytirish etib qo‘yilgan.

1924 yilning may oyida “Western Elektrik” firmasining (AQSh) texnik nazorat bo‘limi xodimi V.Shuxart sifatni boshqarishda statistik usullari asoslangan nazorat xaritalarini qo‘llash taklifini ishlab chiqdi (7.4-rasm).



**7.4-rasm Shuxart Karta nazorati**

V.Shuxart muhandislar, ekspertlar va menejerlarga asosiy e’tiborni alohida nomutanosibliklar va defektlardan jarayon variatsiyalariga (belgilangan rejimdan chetlanish holatlari) qaratish taklifini berdi. Unga ko‘ra ikki muhim holat inobatga olinishi kerak:

- aybdorlarni izlash kerak emas, balki, barcha aloqador shaxslarni jalb etgan holda nomutanosibliklar sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish lozim;
- nomutanosibliklar va defektlarning sababi jarayonlar variatsiyasi deb bilish.

1930 yillarda buyumlar sifati muammolarini hal qilishda butun jahon ishlab chiqarish amaliyoti ishchilar, nazoratchi va menejerlarning birgalikda faoliyat olib borish g‘oyasini ishlab chiqishdi. Mahsulot sifatini oshirishda asosiy omillardan biri

"ishchilar hayoti" ya'ni ishlab chiqarish xodimlarining sifat shartlari tashkil topa boshladи.

*Sifatni doimiy oshirish fazasi.* XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy hayotida, aholi hayotiy ehtiyojlarini qondirish borasida mahsulot sifatini ta'minlash, talabchan raqobatchilik asosida kompaniyalarni siqib chiqarish (sindirish) omillaridan biri bo'lib qoldi. 1950 yillarda A.Feygenbaum yalpi (total) sifatni boshqarish (TQC - Total Quality Control) mazmun va mohiyatlarini shakllantirib, 1960 yillarda korxonani boshqarish sohasida yangi falsafa yaratilishiga asos soldi.

“Hozir sifat muammosi birmuncha qiyinroq - deya ta'kidlagan edi Feygenbaum, - uni faqat yangi tashkiliy tuzilma shakllangan taqdirdagina muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. Bu muammolarning kelib chiqish sabablari “eskirgan” tashkiliy tuzilma mavjudligidadir”.

Bu vaqtda sifatni boshqarish sohasida amerikalik mutaxassis Dj.Djuran mahsulot sifati ko'rsatkichi sifatida nuqsonsizlik g'oyasini ilgari surgan. Zamonaviy sifat falsafasining shakllanishida Edvard Deming tomonidan 1950 yilda olg'a surilgan sifat menejmenti dasturi asos bo'lib hisoblanadi. Mazkur dastur 1992 yilgacha keng miqyosda joriy etilgan.

E.Deming Shuxartning ilmiy g'oyalarini chuqur o'rganib va boyitib ilk bora sifatni oshirishga qaratilgan dasturni ishlab chiqdi. Dastur 32 ta pragmatik aksiomaga (ya'ni, isbotsiz qabul qilinadigan va menejerlarning amaliy faoliyati natijalarini umumlashtiradigan qoidalarga) tayanadi. Bunga ko'ra:

1 - pragmatik aksioma - ixtiyoriy faoliyat texnologik jarayon sifatida ko'riliishi mumkin va shuning uchun sifati oshirilishi mumkin.

2 - pragmatik aksioma - ishlab chiqarish turg'un va noturg'un holatda bo'luvchi tizim sifatida ko'riliishi mumkin. Shuning uchun aniq muammolarni hal etishning o'zi yetarli emas, baribir tizim bera olishi mumkin bo'lgan natijani olasiz xolos. Fundamental o'zgarishlar joizdir.

3 - pragmatik aksioma - korxonaning yuqori rahbariyati har qanday hollarda ham korxona faoliyati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozimdir.

**Sifatni rejalashtirish fazasi.** Mazkur faza oldingi asrning 60-yillari o'rtaidan boshlangan bo'lib, oldingi fazada ilgari surilgan g'oyalarni yanada rivojlantirish, iste'molchilarining talablarini to'laroq qondirish borasida shakllantirila boshlagan. Sifatni rejalashtirish fazasi kelib chiqishi asosan jahon bozorida mahsulotlar va xizmatlarning rivojlanishi, bozordagi raqobatning keskin kuchayishi hamda iste'molchilarining manfaatlarini himoya etish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bilan izohlanadi.

1976 yilda yaponiyalik mashhur mutaxassis K.Isikava o'zining ishida, sifat muammolarini yechish uchun sabab-oqibat diagrammasi qurish usulini qo'llash taklifi bilan chiqadi. Ayni shu davrda mashhur yapon olimi G.Taguti mahsulotni loyihalashtirish bosqichida optimal qarorlar qabul qilish yo'li bilan mahsulot sifatini ta'minlash usuli va g'oyasini ilgari surib, buni o'zining ishlarida batafsil tavsiflab bergen.

Sifatga nisbatan talablarning kuchayishi yangi fazada quyidagi konseptual asoslarga suyanishga olib keldi:

- buyumlardagi nuqsonlarning (defektlarning) aksariyati loyihalash ishlarining sifati yetarli darajada bo'lмаганлиги sababli ishlab chiqarish bosqichida kelib chiqadi;
- ishlab chiqariladigan buyum va mahsulotlarning xossalalarini va ularni ishlab chiqarish jarayonlarini matematik modellash amallarini keng qo'llash orqali konstruktiv va texnologik defektlarni ishlab chiqarish bosqichi boshlangunga qadar aniqlash;
- “0 defekt” konsepsiyasining o'rnini “iste'molchining qanoatlanganligi” konsepsiyasiga berish;
- iste'molchiga yuqori sifatni kuchli raqobat natijasida doimiy pasayib boruvchi, o'rinli narxda taklif etish lozim.

Mahsulot sifatiga butun dunyo bo'yicha nafaqat bozor raqobati va shu bilan bir qatorda boshqa omillar ya'ni iqtisodiy, ekologik, texnologik talablar ta'sir etib bormoqda.

1980 yil oxirlarida yalpi sifat menejmenti (TQM - Total Quality Management) usuliyati shakllanib belgilandi. Sifat asosida yalpi boshqarish - bu iste'molchilarning qoniqish darajasini oshirish uchun olingan ko'nikma va bilimlarni qo'llash va umumiyligini o'qitish hamda faoliyatning barcha turlarini doimiy yaxshilashda barcha xodimlarni jalgan qilish va guruhli ishda peshqadamlik yordami bilan yuqori rahbariyatning maxsuldarlikni doimiy yaxshilash asosidagi biznes falsafasidir. ISO 9000 seriyali standartlarning paydo bo'lishi va ularni amaliyotda keng joriy kilishga TQM birinchilardan bo'lib yo'l ochib berdi.

Jahon global iqtisodiyotining zamonaviy sharoitlarida bozor talab qilgan va optimal qiymatga ega mahsulotlarni yetkazib beruvchi korxonalargina muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Zamonaviy iqtisodiy holat korxona rahbarlarining e'tiborni alohida ishchilar samaradorligiga emas, balki korxonani boshqaruvida tizimli yondoshishga qaratishga undamoqda, bunda korxonaga, iste'molchilar talablariga, shuningdek atrof-muhitni muhofazasi talablariga muvofiq bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatishga olib keladigan ko'p jarayonlarni uyg'unlashgan o'zaro aloqasi sifatida qaralmoqda. Boshqarishga bunday yondoshishni, jahon iqtisodiyotining rivojlanishini zamonaviy bosqichida korxonalarni oldida turgan maqsadlar va vazifalarni qayta ko'rib chiqish hamda doimiy takomillashtirish jarayoni natijasidagi ustivor yo'naliishlarni qayta baholanishi bilan tushuntirish mumkin. Yuzaga kelayotgan raqobat sharoitlarida doimiy takomillashtirish tamoyili korxonalar yutug'ining kafolati hisoblanib, shu bilan birga rahbarlarni korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga va iste'molchilarda ularning sifati hamda ekologik xavfsizligiga ishonchni ta'minlashga olib keladigan yo'llar va usullarni izlashga majbur qiladi.

Birinchi tan olingen tizimlar - sifat va sifat standartlari sanoat ishlab chiqrish jarayonlari rivojlanishi va texnologik o‘zgarishlar natijasi sifatida ikkinchi jahon urushidan so‘ng joriy qilindi.

Bu o‘zgarishlar birinchi bo‘lib AQShda sezildi va harbiy qurol-aslahalarni standartlashtirish maqsadida quyidagi standartlar qo‘llana boshlandi:

- MEL-Q-9858 Sifat tizimining texnikaviy shartlari
- MIL-1-45208 Nazorat tizimiga talablar

Bu ikkala standart hozirgi kunda ham amalda bo‘lib, harbiy kontraktlar va boshqa massadlar uchun qo‘llanilmoqda.

Bu standartlar shuningdek, NATO doirasida qo‘llaniladigan AQAP (Sifatni ta’minlash bo‘yicha birlashgan materiallar) nomi ostida mashhur bo‘lgan standartlar to‘plamlari uchun asos qilib olingen.

Vaqt o‘tishi bilan sifat standartlariga aniq zaruriyat harbiy sanoat doirasidan tashqarida ham paydo bo‘la boshladi. Shuning uchun ham BS 4891 va BS 5179 Britaniya standartlari joriy qilindi. Ular asosan amaliy rahbariy hujjatlarga o‘xshash bo‘lib, shartnomalar bo‘yicha talablar sifatida qo‘llanila olmasdi. AQAP standartlari harbiy talablar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli ularni ham qo‘llash mumkin deb hisoblash qiyin edi.

Bu muammo o‘z yechimini 1979 yilda topdi, shu yili 1, 2, 3 uch qismdan iborat bo‘lgan BS 5750 standarti nashr qilindi. Ular bir-biriga o‘xshash va sub’ektiv edi hamda qo‘srimcha tushuntirishlarni, shuningdek standartlarni qo‘llash bo‘yicha ma’lumot bo‘lgan qo‘srimcha qismlarni (4, 5 va 6) talab qilar edi.

BS 5750 iste’molchilar va ta’minotchilar tomonidan shartnama tuzish holatlarida qo‘llanilar edi. Ammo, bunga qo‘srimcha ravishda, BSI (Britaniya Standartlar Instituti) uchinchi tomondan ro‘yxatga olish sxemasini joriy qildi. Bu BSI ga tegishli tashkilotlar talablariga muvofiq bo‘lgan kompaniyalarni ro‘yxatga olishga imkon berdi. Ro‘yxatga olish barcha mavjud va kelajakdagi iste’molchilar nomidan sifat kafolati bo‘lib xizmat qilishi mumkin edi.

Xalqaro amaliyotda bunday holatlar ko‘p uchrab turganligi uchun Xalqaro standartlashtirish tashkilotining (ISO) 176 komiteti 1987 yili BS 5750 asosidagi qator standartlarni nashr qildi, bu ISO 9000 standartlarini bazaviy seriyasi edi. 1987 yildan boshlab ISO 9000 seriyali standartlarini ishlab chiqish davom etdi. Yangi ISO 9000 seriyali standartlarini ishlab chiqish bilan bir qatorda, 1987 yil qabul qilingan asos bo‘luvchi standartlarni qayta ko‘rib chiqish rejulashtirildi. Qayta ko‘rib chiqish ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchisi 1994 yil va ikkinchisi 2000 yillarda.

ISO 9000:2000 seriyasi ISO standartlarining uchinchi tahriri bo‘lib, u quyidagi standatlardan iborat:

- ISO 9000:2000 Sifat menedjmenta tizimi. Asosiy qoidalar va lug‘at;
- ISO 9001:2000 Sifat menedjmenta tizimi. Talablar.
- ISO 9004:2000 Sifat menedjmenta tizimi. Faoliyatni yaxshilash bo‘yicha tavsiflar.

Ushbu standartlar O‘zbekiston Respublikasida 2002 yil Davlat standartlashtirish tizimida O‘z DSt ISO 9000:2002 Sifat Menedjmenti Tizimi. Asosiy qoidalar va lug‘at. nomi bilan xalqaro standatlarga uyg‘unlashgan davlat standarti qabul qilindi.

2005 yil ISO 9000 standartining ayrim atama va ta’riflariga o‘zgartirishlar kiritilgan va 2008 yilda ISO 9001 standarti qayta nashr etildi.

Hozirgi kunda ISO 9001:2008 standarti O‘z DSt ISO 9001:2009 standarti bilan asliga mosligi bo‘yicha O‘zbekistonda qabul qilingan va Respublikamizda sifat tizimini keng darajada joriy qilishda asosiy normativ hujjat sifatida amal qilinib kelinmoqda.

Hozirgi zamon sifat falsafasi sifat boshqaruvida gorizontal jarayonlar (“marketolog - konstruktor - texnolog - ishlab chiqaruvchi - sinovchi – sotuvchi” yo‘nalishlaridagi jarayonlar) bilan bir qatorda vertikal jarayonlarga (yuqorida pastga yoki pastdan yuqoriga qarab boriladigan jarayonlar) ga ham katta e’tibor qaratadi.

Korxonada joriy etilgan sifatni boshqarish tizimining tashkiliy tuzilmasi gorizontal va vertikal jarayonlarni turli darajada qamrovga olgan bo‘lishi mumkin. Lekin muhim, ushbu menejment yo‘nalishlari inobatga olingan bo‘lishidir.

Ushbu yondashishdan kelib chiqib, bir guruh olimlar sifat tizimlarining rivojlanishi bosqichlarini kengroq qamrovda ifodalash maqsadida “sifat yulduzi” modelidan foydalanganlar. Bunda bir paytlari qo‘llanilgan “sifat belgisi”ga ham qisman asoslangan.


Ushbu asosda hujjatlashtirilgan sifat tizimi, hamkorlik munosabatlari, o‘qitish jarayonlarining rivojlanish tarixi xronologik tarzda va quyidagi besh bosqichda ko‘riladi:

Birinchi bosqich. Birinchi tizimning paydo bo‘lishi - Teylor tizimiga muvofiq boshqaruvga tizimli yondashish masalalarini boshlanishi (1905 yil).

Ikkinci bosqich. Teylor tizimi har bir muayyan mahsulot sifatini boshqarishining ajoyib mexanizmini yaratdi. Bir mahsulot - bu ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish natijasi va aniq tushunarli hamda jarayonlarni boshqarish lozim bo‘ladi. 1924 yilda “Bell Telephone Laboratories” korporatsiyasi R.L. Djons rahbarligi ostidagi guruh sifatni boshqarishning statistik usullarini yaratdi.

Uchinchi bosqich. 1950 yilda yalpi sifat nazorati - TQC (Total Quality Control) mazmuni va mohiyati vujudga kelgan.

Uchinchi bosqich. 1950 yilda yalpi sifat nazorati - TQC (Total Quality Control) mazmuni va mohiyati vujudga kelgan.




**7.5-rasm. Sifat bo'yicha ishlar, usullar va shakllarning rivojlanish jarayoni.**

**Mahsulot sifati standartlarga muvofiq ravishda**




Taylor tizimi  
(texnik hujjatlashtirish)

**Mahsulot sifati standartlar va barqarorlikka muvofiq ravishda**




Statistik sifat boshqaruvi

**Mahsulot sifati, jarayonlar, bozor талабларига мувофик равишда**




Yalpi sifat nazorati (TQC)

**Sifat- xaridor va xizmatchilar ehtiyojini qondirish sifatida**



**Sifat - xaridor, xizmatchi, egalari (aksionerlar) va jamiyat ehtiyojlarini qondirish sifatida**



**7.6-rasm. Sifatning besh yulduzi.**

To‘rtinchi bosqich. 1980 yillarda yalpi sifat nazorati tizimi(TQS)dan yalpi sifat menedmenti tizimi (TQM)ga o‘tish boshlangan. Bu vaqtida sifat tizimiga yangi xalqaro standartlari ISO 9000 (1987 y.) standartlari paydo bo‘lgan. 1994 yilda xizmatlar, qayta ishlanadigan materiallar va dasturiy mahsulotlar sifatini ta’minlash masalalari bo‘yicha xalqaro ISO 9004-1, -2, -3, -4, standartlari ishlab chiqilgan.

Beshinchi bosqich. 1990 yillarda korxonaning jamiyatga ta’siri, balki korxona jamiyatdagi barcha qiziqishlarni hisobga olishi yuzaga kelgan. Bu atrof-muhitni himoyalash va mahsulotlar xavfsizligi menejmenti tizimiga doir ISO 14000 seriyali standartlar paydo bo‘lgan.

Umuman olganda, hozirgi XXI asr – “Sifat asri”da davlatlar va mintaqalararo iqtisodiy globallashuv va integratsiya jarayonlari qanchalik shiddat bilan rivojlanib borayotgan bo‘lsa, sifatga nisbatan talab va ehtiyojlar ham shunga monand ortib bormoqda.

Rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda respublikamizda ham yirik ishlab chiqarish korxonalari, kichik va xususiy tadbirdorlik sub’ektlari, shu bilan birga iste’molchilarimiz ham sifat masalalari va muammolarining hayotiy va iqtisodiy jihatlarini, sifatni ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarning muntazam ravishda kamayib borishi va mehnat unumdarligini oshirishdagi ahamiyatini chuqurroq, mukammalroq tushunmoqdalar. Shundan kelib chiqib, sifat sohasida xalqaro standartlar ishlab chiqish, ularni takomillashtirish muntazam amalga oshirib boriladi deyish mumkin va bu davr taqozosi bo‘lib qoladi.

### **Nazorat savollari**

1. Sifatni boshqarish tarixi va rivojlanishini aytib bering.
2. Sifat menejmenti va uning bosqichlarini tushuntiring.
3. “Yuqori sifat” haqida nimalarni tushunasiz va tushuntirasiz?
4. Sifatga uslubiy yondashuvlar qanday?
5. Sifat menejmenti elementlari haqida nimalarni tushunasiz?
6. Raqobat nima?
7. Raqobatning qanday turlari mavjud?

8. Narxli va narxsiz raqobat o‘rtasida qanday farq bor?
9. Sifat tizimini raqobatga qanday ta’siri mavjud?
10. Mahsulot sifatini rejalashtirishda raqobatning qaysi xususiyatlarini e’tiborga olgan ma’qul?
11. Sifatni rejalashtirishda marketing tadqiqotlarining qanday o‘rnii bor?
12. Sifatni rejalashtirish va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasidagi porporsiyani optimallashtirishda qanday muammolar mavjud?
13. Tovar nima?
14. Tovarning qanday xususiyatlarini bilasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rissek H. Quality Control in Production 2010 y.
2. Биктимиров Р.И., Гречишников В.А. и другие. Управление качеством в машиностроении. С-Пб: Питер, 2005 г, 256с.
3. Л.В. Перегудов. Управление качеством в машиностроении. Ташкент: “Молия”, 2002 г.
4. Бендеровский А.М. Обеспечение качества продукции. М:, Стандартлар нашриёти, 1998 г.
5. Клепиков В.В. ва бошқалар. Качество изделия. М:, МГИУ, 2006 г, 250с.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot: Texnologik jarayonlarni loyihalashda bazalashning yangi sistemalari.**

*Ishdan maqsad:* Korpusli detallarga ishlov berishda mumkin bo'lgan bazalash sxemalari o'rghanish, tegishli bazalash sxemalariga mos ravishda bazalash sxemalarni yangi variantlarini tanlash va bazalash xatoligi aniqlash.

*Masalaning qo'yilishi:* Mashina detallarini ishlash texnologik jarayoni har xil variantlarda berilishi mumkin.

Texnologik jarayon variantini chizma talablarini va tehnik sharoitlarini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqishi kerak, detal tayyorlashning eng katta mehnat unumdorligini va minimal tannarxini ta'minlashi kerak. Detallarga ishlov berish ketma-ketligini (texnologik marshrutini) belgilash bazalashtiriluvchi yuzalarni tanlash bilan bir vaqtda bajarilishi kerak.

Texnologik bazalarni tanlash, detallar tayyorlash texnologik jarayonlarini ishlab chiqish juda ham mas'uliyatli daqiqalardan hisoblanadi chunki ular ko'pincha tayyorlanuvchi detal aniqligini va uni tayyorlash samaradorligini oldindan belgilab beradi. Shuning bilan birga bazalash sxemalarini tanlash eng murakkab masalalardan biridir, chunki detal tayyorlash texnologik jarayoni bir qancha xususiy masalalarning echimiga bog'liqdir.

Bazalash sxemalarini tanlashni, ya'ni detal yuzalarining bajarilishi, uning xizmat qilish vazifalari va uning sirtlari o'rtasida o'rnatilgan o'lchamlarining bog'lanishlari oldindan belgilangan funksiyalarning taxlilidan boshlanadi. Sirtlarning funksiyalarini va ularning detal xizmat qilish vazifasiga nisbatan qo'yilgan talablarini o'rganib, qaysilarga nisbatan berilgan va uning boshqa ko'p sirtlarining holati ko'proq qat'iy limitlashtirilgan sirtlarni topadi.


Agar detallarni bir o'rnatishda to'la ishlov berish imkonи bo'lmasa, detal sirtlarining talab etilgan o'lchamlari bog'lanishlarning berilgan aniqligiga qisqa yo'l bilan erishish uchun texnologik jarayonning ko'pchilik operasiyalarida, aynan shu sirtlarni texnologik bazalar sifatida qo'llash kerak.

Zagotovkalarga ishlov berish uchun stanoklarga o'rnatishda quyidagilarni farqlash kerak.


- a) keskich asbob ta'sir etuvchi, ishlanuvchi sirtlar;
- b) o'lchamlarni avtomatik usul bilan olishda, asboblar o'lchamiga nisbatan o'rnatilgan zagotovkani joylashtiruvchi sirtlar;
- v) mahkamlovchi qurilmalarning ta'sirini qabul etuvchi sirtlar;
- g) ushlanuvchi o'lchamlarning o'lchanishi boshlanadigan sirtlar;
- d) ozod, ya'ni mazkur o'rnatuvda qo'llanilmaydigan sirtlar.

Ishlov berishda ushlanuvchi o'lchamlarning aniqligi o'rnatiluvchi sirtlarning soniga bog'liq bo'lib, qat'iy belgilangan (reglamentlashtirilgan) bo'ladi, ularning etishmovchiligi yoki ortiqchaligi o'rnatish aniqligining buzilishiga olib keladi. Ma'lumki, qattiq jismning fazodagi holatini to'la aniqlash uchun uni oltita erkinlik darajasidan: uchta koordinata o'qlari bo'ylab ilgarilanma va shu uchta ko'rsatilgan o'qlar atorfida aylanma harakatlaridan maxrum etish zarur.

Nazariy mexanika qoidalariga asosan prizmatik to'g'ri to'rtburchakli tanani fazoda joylashtirish (orientirlash) uchun uning pastki yuzasini (o'rnatuv bosh bazalanuvchi yuza) to'g'ri burchakli koordinata sistemasining XOY tekisligi bilan uchta ushlab turuvchi bikir (ikkitononlama) 1,2,3 bog'lovchilar bilan birlashtirish zarur (1,2-rasmlar).




**1.1-rasm. Prizmatik tanani fazoda joylashtirish va moslama tayanch 6 nuqtalariga o'rnatish.**




### 1.2-rasm. Prizmatik detalni uchta koordinata tekisliklariga proeksiyalarini joylashtirish sxemasi.

Buning natijasida prizmatik tana uchta erkinlik darajasidan mahrum etiladi, xusuan, Y, Z, o'qi bo'ylab siljish va X, Y o'qlari atrofida aylanish imkoniyatini yo'qotadi. Tanani yana ikkita erkinlik djarajasidan mahrum etish uchun yoki X o'qi bo'ylab siljish va Z o'qi atrofida aylanish imkoniyatidan mahrum etish uchun uning yon yuzasini (yo'naltirgich bazalanuvchi yuza) YOZ tekisligi bilan ikkita ushlab turuvchi 4 va 5 bog'lovchilar yordamida birlashtirish zarur. Tanani to'la mahkamlash uchun uning fazodagi oltinchi erkinlik darajasidan – Y o'qi bo'ylab siljish imkoniyatidan mahrum etish zarur, buning uchun ko'ndalang (tores) yuzasini (tayanch bazalanuvchi yuza) XOY tekisligi bilan bitta ushlab turuvchi bikir 6 bog'lovchi bilan birlashtirish kerak. Qattiq tanani fazoda joylashtirish uchun kerakli bo'lgan oltita erkinlik daraja va oltita ushlab turuvchi bog'lovchilar to'g'risidagi qoidalarga mos ravishda konstruktorlar va texnologlar o'zlarining ishida xususan olti nuqta qoidasidan foydalananadilar. Berilgan detalning yuzalarini ma'lum holatda joylashtirish uchun moslamada yoki mexanizmda oltita tayanch nuqtalar bo'lishi zarur va etralidir.



**1.3-rasm. Silindrik detalni uchta koordinata tekisliklariga proeksiyalarini  
joylashtirish sxemasi**



**1.4-rasm. Disksimon detalni uchta koordinata tekisliklariga proeksiyalarini  
joylashtirish sxemasi.**

Ikkilangan yo'naltirgich bazalar va ikkilangan tayanch bazalar misoli 3 va 4-rasmlarda keltirilgan.

*Texnologik bazalar tanlashda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:*

1. Dag'al zagotovkalar (quyma yoki shtamplangan) qora bazasi bo'yicha o'rnatiladi, qaysiki birinchi operasiyadan keyin tozasiga almashtiriladi. Doira charx tosh bilan ishlanganda qora baza uchun qaerda qo'yimi kam bo'lsa, o'sha sirtlar olinadi.
2. Ishlangan zagotovkalarni bazalash aniqroq ishlangan yuzalar bo'yicha amalga oshiriladi.

3. Ishlash aniqligini oshirish maqsadida o'rnatuv (texnologik) bazani konstruktor bazasi bilan mos tushishga intilish lozim (bazalarning mos tushish tamoyili amalga oshiriladi).

4. Bir marta tanlangan bazalanuvchi yuzalarni keyingi operasiyalarda ham qo'llash kerak yoki boshqacha aytganda bazalar doimiyligi tamoyiliga amal qilish kerak.

5. Bazalanuvchi yuzalar shunday hisob bilan tanlanishi kerakki, qaysiki ishlashda mahkamlash va kesish kuchi ta'siridagi detal deformasiyasi minimal bo'lishi kerak.

***Kerakli detallarni tayyorlashning ikki usuli amalda ko'proq qo'llaniladi:***

1. Koordinata burchagi hosil qiluvchi uchta tekislik bo'yicha;
2. Tekislik va moslamaning o'rnashtirilgan ikki barmoqlariga o'tqazish uchun 7 kvalitet aniqlikda ishlangan ikkita teshik bo'yicha.

Bazalash xatoligi [2] 41-52 betlarda berilgan usul bo'yicha aniqlanadi.

**Topshiriqlar:**

1. Korpusli detal chizmasini o'rghanish va ishlov berish marshrutini tuzish.
2. Operasiyani belgilash.
3. Belgilangan operasiylarni bajarish uchun bazalash sxemasini tanlash.
4. Detalni qurilmaga o'rnatish va bazalash sxemasi to'g'ri tanlanganligini tekshirish (1,2 operasiyalar uchun).
5. Tanlangan bazalash sxemasi uchun bazalash xatoligini aniqlash.
6. Ish bo'yicha xulosalar chiqarish.
7. Korpus detallarining bazalash sxemalari variantlarini nshlab chiqish.
8. Valsimon detallarning bazalash sxemalari variantlarini nshlab chiqish.
9. Bazalash sxemalarini shakllantiruvchi qurilmalarni ishlab chiqish.

**Ishni bajarish uchun tavsiyalar:**

Operasiyalarni loyihalashda qaysi sirtlar ishlanadi va qaysi bazadan o'lchamni ushslash kerak va qaysi o'lchamni olish kerak degan savolni echish zarur. Mazkur ishni bajarishda o'qituvchi tomonidan berilishi mumkin bo'lgan yoki ayrim hollarda detallarga ishlov berish marshrutini, texnologik jarayonini tanlashni va qaysi

operasiya uchun bazalash sxemasini ishlab chiqishni talabaning o'ziga topshirish ham mumkin.

Korpusli detallar uchun 1 va 2 operasiyalariga, bazalash sxemalarini tanlashning berilgani maqsadga muvofiqdir.

Bu holda talaba to'la marshrutni belgilashi kerak. Talaba berilgan operasiya uchun bazalash sxemasining bir necha variantini taklif etishi va keraklicha etarli sonda tayanch nuqtalarini hamda ularning joylashish o'rnilarini belgilashi kerak.

Har bir sxemaning tavsifini berish va uning afzalliklarini hamda kamchiliklarini ko'rsatish kerak.

Qurilmada tayanch nuqtalarni talaba taklif etgan sxemasi bo'yicha joylashtirish kerak va tanlangan nuqtalarga real detalni o'rnatish yo'li bilan sxemaning to'g'riliгини tekshirish kerak.

Agar taklif etilgan sxema qo'yilgan xatolikga ko'ra o'rnatish imkonini bermagan chog'da talaba bazalash sxemasini o'zgartirib, kerakli tuzatishlar kiritishi va qabul qilingan sxemaning to'g'riliгини qurilmada yangidan tekshirishi kerak.

### **Tekshirish uchun savollar:**

1. Erkinlik darajasidan maxrum etilishi bo'yicha bazalar nechta sinfga farqlanadi?
2. olti nuqta qoidasini tushuntiring?
3. O'rnatish bazasi sagotovkani nechta erkinlik darajasidan maxrum etadi?
4. Bazalash sxemasini to'g'ri tanlash nimalarga bog'liq?
5. Basalar birligi tamoyili bajarilsa nimaga etishamiz?
6. Basalar doyimiyligi tamoyiliga amal gilinsa nimaga erishamiz?
7. Siz tuzgan va tanlagan bazalash sxemangizda qaysi tamoyilga amal qildingiz?
8. Tanlagan bazalash oprratsion eskizingizni to'g'riliгини qurilmada tekshirib ko'rdingizmi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Serope Kalpakjian, **Steven R. Schmid, Hamidon Musa.** Manufacturing Engineering and Technology - Prentise Hall, USA.- 2012.1173
2. Grady J.O. System Synthesis: Product and Process Design. CRC Press, <http://www.twirpx.com/file/1432875/>. London, UK, 2010.
3. Davim J.P., Jackson M.J. Production texnology. Nova Science Publishers, Inc., 2011. <http://www.twirpx.com/file/1472025/>

## **2-amaliy mashg'ulot: Zamonaviy, avtomatlashtirilgan mashinasozlik**

### **ishlab chiqarishining texnologik jihozlari.**

Zamonaviy, avtomatlashtirilgan mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jihozlari, RDB, ko'poperatsiyali stanoklar va moslanuvchan ishlab chiqarish modullari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va texnologik imkoniyatlari, ishlash printsiplari, asosiy va servis qo'rilmalari, avtomatik boshqarish sistemalari.

**Ishdan maqsad:** tezliklar qutisini hisoblashda, strukturaviy setkalarni va aylanishlar chastotasi grafigini qurishda amaliy konstruksiyalash va nazariy asoslardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Masalaning qo'yilishi:** Stanokni berilgan kesish tezligiga kerakli aniqlik bilan sozlashni ta'minlash uchun shpindelning quyidagi formula bo'yicha hisoblanadigan  $n_{min}$  dan  $n_{max}$  gacha chegaradagi har xil aylanishlar chastotasiga o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lish kerak:

$$n_{min} = \frac{1000 * V_{min}}{\pi * d_{max}} n_{min} = \frac{1000 * V_{min}}{\pi * d_{max}},$$
$$n_{max} = \frac{1000 * V_{max}}{\pi * d_{min}} n_{max} = \frac{1000 * V_{max}}{\pi * d_{min}},$$

bu yerda  $V$  – kesish tezligi,  $m/min$ ;

$d$ - zagotovka yoki asbob diametri,  $mm$ .

Shpindelning aylanishlar chastotasini rostlash diapazoni stanokning ekspluatatsion imkoniyatlarini xarakterlaydi va quyidagicha aniqlanadi:

$$D_n = \frac{n_{max}}{n_{min}}$$

Bosh harakat yuritmasi tezligini pog'onasiz rostlaydigan stanoklarda (zamonaviy stanoklar va RDB ishlov berish komplekslari) berilgan diametrغا tanlangan kesish tezligiga mos aylanishlar chastotasini absalyut aniq o'rnatish mumkin. Biroq ekspluatatsiyada mavjud ko'p sonli stanoklar aylanishlar chastotasining pog'anali qatoriga ega. Shuning uchun, berilgan diametrda hisoblangan optimal kesish tezligini ta'minlaydigan chastota o'rniga stanokda mavjudlaridan eng yaqin kichigini tanlashga to'g'ri keladi. Bu haqiqiy  $n_h$  chastotaga

$$V_h = \frac{\pi * d * n_h}{1000} V_h = \frac{\pi * d * n_h}{1000} m/min$$

kesish tezligi to‘g‘ri keladi, va u hisobiydan ( $V-V_h$ ) ga kichik.

Kesish tezligining nisbiy yo‘qotilishi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\Delta V = \frac{V - V_h}{V} = \frac{1000 * (\pi * d * n_h)}{1000} = \frac{n - n_h}{n}$$

$$\Delta V = \frac{V - V_h}{V} = \frac{1000 * (\pi * d * n_h)}{1000} = \frac{n - n_h}{n},$$

$n - n_h$  qancha kichik bo‘lsa bu fark ham shuncha kichik bo‘ladi.

$n_{min}$  dan  $n_{max}$  gacha eng ratsional aylanishlar chastotasi maxraji  $\varphi$  bo‘lgan geometrik progressiyada yotadi, ya’ni quyidagi munosabatni saqlash kerak bo‘ladi:

$$\frac{n_1}{n_2} = \frac{n_2}{n_3} = \frac{n_z - 1}{n_z} = \frac{1}{\varphi} = const$$

Geometrik progressiya maxraji *GOST 8032-56* (jadval A1)bo‘yicha tanlanadi.

Shpindelning aylanishlar sonining geometrik progressiya qonuniyati tezliklar qutisini eng oddiy ko‘paytuvchi deb ataladigan kinematik struktura bilan loyihalash imkonini beradi. Bunday strukturalar bitta kinematik zanjirda o‘zaro ketma-ket bog‘langan ikkita elementar valli mexanizmlardan tashkil topadi.

Ikkita qo‘shni vallarni aylanishini bog‘lovchi uzatmalar to‘plami uzatmalar guruhini hosil qiladi. Uni ikkita ko‘rsatkich: guruhdagi uzatmalar soni -  $p$  ularning uzatishlar nisbati kattaligi -  $i$  xarakterlaydi.

Qurilmani soddaligi uchun olti pog‘onali tezliklar qutisini ko‘ramiz (29-rasm). I valdan II valga aylanishni uzatish uchun uch venetsli blokli ko‘paytuvchi mexanizm xizmat qiladi (1-2, 3-4 5-6 g‘ildiraklar), II valdan III valga ikki venetsli blok bilan ko‘paytuvchi mexanizm (7-8, 9-10) xizmat qiladi. Bu mexanizmlarni ketma-ket birikishi natijasida (odatdagи ko‘paytuvchi struktura) yetaklovchi val I ning bitta tezligida yetaklanuvchi val (yoki shpindel) III olti xil har xil burchak tezliklariga ega bo‘ladi.


Ko‘rilayogan sxemada biz ikkita ko‘paytuvchi guruhga: birinchisi uchta uzatmadan tashkil topgan (1-2, 3-4, 5-6), ikkinchisi – ikkita uzatmadan (7-8, 9-10 )ega bo‘lamiz.

Guruhlarning kinematik zanjir bo‘ylab kelish tartibi tezliklar qutisining konstruktiv variantini xarakterlaydi.

Uni shartli ravishda struktura formulasi ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$z=6=3*2$$

Olti pog‘onali tezliklar qutisi sxemasi boshqa konstruktiv varint (tartibga) ega bo‘ladi (24,b rasm).



### 2.1-rasm. Olti pog‘onali tezliklar qutisi sxemasi.

Bu yerda birinchi guruhda ikkita uzatma (1-2, 3-4), ikkinchi guruhda esa –uchta uzatma (5-6, 7-8, 9-10) mavjud. Bu variant uchun struktura formulasi:

$$z=6=2*3.$$

Umumiy ko‘rinishda tezliklarning pog‘onalari soni:

$$z=P_aP_b\dots R_m,$$

bu yerda  $P_a$ ,  $P_b$ ,  $R_m$ - birinchi, ikkinchi,  $m$ -chi guruhlardagi uzatmalar soni.

Bitta strukaturaning mumkin bo‘lgan konstruktiv variantlari soni  $m$  guruhlarni almashtirishlar soniga teng:

$$K_{KC} = \frac{m!}{q!} K_{KC} = \frac{m!}{q!},$$

bu yerda -  $q$ - uzatmalari soni bir xil bo‘lgan guruhlar soni.

Bizning holat uchun  $m=2$ ,  $q=1$ , natijada  $(1*2)/1=2$ , aynan:

$$z=6=3*2=2*3.$$

Guruhdagi uzatmalar nisbatining munosabati  $\varphi^x$  marta o‘zgaradi va shpindelning bir aylanishlar tezligidan boshqasiga o‘tishida uzatmani qo‘shish kinematik tartibi (yoki varianti) bilan belgilanadi. Daraja ko‘rsatkich  $x$  guruhning xarakteristikasi deb ataladi. Nafaqat konstruktiv, balki kinematik tartibini ham aniqlovchi struktura formulasi quyidagicha yoziladi:

$$z = P_{(x1)}P_{(x2)} \dots P_{(xm)}. \quad (1)$$

bu yerda formulada guruh o‘rniga konstruktiv tartibi va guruh nomeri ko‘rsatilgan. Bizning misol uchun  $z=3_1*2_3$ .

Bunday yozuv, birinchi guruhda uchta uzatma borligini, uning xarakteristikasi  $x_1=1$ ; ikkinchi guruh – ikkita uzatmaga, xarakteristikasi  $x_2=3$  ligini ko‘rsatadi.

***x=1 xarakteristikaga ega uzatmalar guruhi asosiy guruh deb, qolgan guruhlar ( $s>1$ ) pereborli deb ataladi.***

$x$  kattalik umumiyl holda ixtiyoriy bo‘lishi mumkin emas. Agar birinchi guruh asosiy bo‘lsa, u holda keyingi guruhlarning xarakteristikasi berilgan guruhdan kinematik oldingi guruhli uzatmalar to‘plamidan olingan tezliklar pog‘anasining soniga teng. Bu hol (1) tenglama asosida quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$X_1=1, \text{ u holda } X_2=P_a; X_3=P_a P_b, \dots, X_m=P_a P_b \dots, X_m=P_a P_b \dots P_{m-1}.$$

Misol:  $Z=8=2_1*2_2*2_4$ ;  $Z=12=3_1*2_3*2_6$ ;  $Z=18=3_1*3_3*2_9$ .

Boshqa kinematik variantlar ham bo‘lishi mumkin. Ularning umumiyl soni  $m$  elementlardan qayta quyiqlar soniga teng, ya’ni  $k_{KIN} = m!k_{KIN} = m!$ . Bizning hol uchun  $k_{KIN} = 1 * 2 = 2$ .

Mumkin bo‘lgan (konstruktiv va kinematik) variantlar K ning umumiyl soni odatdagi ko‘paytuvchi strukturalar uchun

$$K = K_{KS} * K_{KIN}$$

Bunday yuritmalarni loyihalashda hisoblashning grafoanalitik usulidan foydalilanildi. Uning mazmuni strukturaiy setkalar va chastotalar grafigini qurish va tahlil qilishga keltiriladi.

### ***Topshiriqlar***

1. Tezlikni rostlash diapazonini qiymatini aniqlash. Quyidagi ma'lumotlar bo‘yicha progressiya maxraji qiymatini aniqlang:  $n_{min}=67 \text{ ayl/min}$ ;  $n_{max}=125 \text{ ayl/min}$ ;  $z=12$ ;
2. Agar minimal kesish tezligi  $V=135 \text{ m/min}$ , ishlov beriladigan yuza diametri  $d=318 \text{ mm}$  bo‘lsa shpindelining aylanishlari chastotasi  $n: 125, 160, 200, 250, 315, 400, 500, 630$  bo‘lgan stanok uchun kesish tezligining nisbiy yo‘qotilishini aniqlang.

3. 3-valli tezliklar qutisini kinematik sxemasini tuzish, struktura setkasini qurish, aylanishlar chastotasi grafigini qurish, aylanishlar chastotasi geometrik qatorini hisoblash, uzatishlar nisbatini hisoblash, uzatmalarining tishlari sonini aniqlang.

4.  $V_{min}=0,5 \text{ m/min}$ ;  $V_{max} = 2,0 \text{ m/min}$ ;  $d_{min}=20 \text{ mm}$ ;  $d_{max} = 30 \text{ mm}$  bo'lganda shpindelning aylanishlar chastotasini rostlash diapazonini  $D_p$  ni aniqlang.

6. Aylanishlar chastotasini rostlash diapazonini va progressiya maxrajini aniqlang.  
 $n_1=45$ ;  $n_2=63$ ;  $n_3=90$ ;  $n_4=125$ ;  $n_5=180$ ;  $n_6=250$ ;  $n_7=355$ ;  $n_8=500$ .

1. Agar optimal kesish tezligi  $V$  va ishlov beriladigan yuza diametri  $d$  bo'lsa shpindelining aylanishlar chastotasi qatori  $n = 63, 71, 80, 90, 100, 112, 125, 140, 160, 180, 200, 224, 250 \text{ ayl/min}$  bo'lgan stanok uchun kesish tezligining nisbiy yo'qotilishini aniqlang.

2. 3 valli tezliklar qutisi uchun kinematik sxemani tuzing, struktura setkasini, aylanishlar chastotasi grafigini quring, aylanishlar chastotasi geometrik qatorini hisoblang, uzatishlar nisbatini hisoblang, uzatmalarining tishlari sonini aniqlang. yetaklovchi valning chastotasi  $n_1=1000 \text{ ayl/min}$ .

3.  $u_1, u_2, u_3$  uzatishlar nisbatini ta'minlashi kerak bo'lgan uch juft tishli shesternyalar tishlari sonini aniqlang..

8. Ikki tezlikli,  $Z=9$ ,  $\varphi=1,41$  yuritmaning struktura setkasini quring.

9.  $Z=17$ ,  $\varphi=1,26$ ,  $\varphi=1,41$  ga struktura setkasini quring.

10. Ikki tezlikli,  $Z=9$ ,  $\varphi=1,26$  yuritmaning struktura setkasini quring.

### **Ishni bajarish uchun tavsiyalar:**

*Strukturaviy setkalarni qurish tartibi:*

1. Teng masofalarda guruhli uzatmalar sonidan bittaga ko'p (uzatmalar vallari soni bo'yicha) vertikal chiziqlar o'tkaziladi, va yuritma nechta tezlikka ega bo'lsa, shuncha gorizontal chiziqlar o'tkaziladi. Gorizontal chiziqlar orasidagi masofa  $lg\varphi$  ga teng.

2. Yuritmada guruhlarning konstruktiv joylashish tartibida bitta guruhli uzatma uchun ajratilgan maydon yonida guruhdagi uzatmalar soni  $P_i$  va uning xarakteristikasi  $X_i$  ko'rsatiladi.

3. Birinchi vertikal o‘rtasida (yuritma tezliklari diapazoni o‘rtasi) nuqta belgilanadi, undan  $P_i$  ga teng sondagi simmetrik nurlar o‘tkaziladi, Bunda keyingi vertikal chiziqda nurlar uchi orasidagi masofa  $X_i * \lg \varphi$  ga teng bo‘ladi.

4. Ikkinci va keyingi vertikal chiziqlarda olingan har bir nuqtadan xuddi shunday yo‘l bilan ikkinchi, uchunchi va hk. guruhli uzatmalar uchun nurlar o‘tkaziladi.

*Aylanishlar chastotasi (aylanishlar soni) grafigini qurish algoritmi:*

Aylanishlar chastotasi grafigini qurish uchun quyidagilar ma'lum bo‘lishi kerak:

- a)  $\varphi$  – aylanishlar chastotasi qatorining maxraji;
- b) aylanishlar chastotasining  $n_1 = n_{min}$  dan  $n_z = n_{max}$  gacha haqiqiy qiymati;
- v)  $n_0$  – yuritmaning tanlangan elektrodvigateli aylanishlari soni;
- g) yuritmaning to‘liq kinematik sxemasi.

Aylanishlar chastotasining grafigi struktura setkasini qurish uchun maydonga o‘xshash maydonda vertikal chiziqlarni bittaga ko‘paytirib (yuritma dvigateli valiga) quriladi, gorizontal chiziqlarga chastota tartib raqamlari o‘rniga ularning haqiqiy qiymatlari beriladi. Bu maydonda oldin vallar chiziqlarini nurlar bilan bog‘lab, aylanishlar sonini  $n_0$  dan  $n_1$  gacha pasaytirish uchun uzatmalar zanjiri belgilanadi. Buning uchun har bir guruhdagi bitta uzatmadan, shu jumladan, dvigatel vali va qutining chiqish (birinchi) valini bog‘lovchi, ta’mirlash uzatmasidan foydalilanadi. Bu uzatmalarning uzatish nisbati shunday taqsimlanadiki, kirish validan chiqish valiga qarab reduksiya ravon ortib borishi kerak. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- grafikda vallarning ikkita nuqtasini bog‘lovchi chiziq uzatish nisbati  $i = \varphi^m$  bo‘lgan uzatmani belgilaydi, bu yerda  $m$  – nurlar bilan qoplanadigan interval  $\lg \varphi$  lar soni;

- agar nur pastga og‘sса, uzatma pasaytiruvchi, ya’ni  $i = \varphi^m$  bo‘ladi. Gorizontal nur uchun  $i = \varphi^0 = 1$ .

Aylanishlar chastotasi grafigini qurishda oraliq vallarda shunday nuqtalarni tanlash kerakki, bunda uzatishlar nisbati ruxsat etiladigan chegarada bo‘lishi kerak:

$$i_{min\ cheg} \geq 1/4 \text{ va } i_{max\ cheg} \leq 2$$

ya'ni uzatmani shartli ifodalaydigan nuring nuqtalari orasida  $\phi$  ning tanlangan qiymatida, intervallar soni 7 jadvalda ko'rsatilganidan ortmasligi kerak.

7 jadval. Tezliklar qutisi uchun intervallar soni

Uzatmalar	Tezliklar qutisi uchun intervallar soni						
	1,06	1,12	1,26	1,41	1,58	1,78	2
Pasaytiruvchi	24	12	6	4	3	2	2
Ortiruvchi	12	6	3	2	1	1	1

1. Tasmali uzatmalar uchun uzatish nisbatini quyidagi chegarada olish tavsiya etiladi:

$$1/3 \leq i_p \leq 2,5.$$

Keyingi qurish, guruhlarning mos xarakteristikalariga amal qilib, struktura setkasining tanlangan varianti bilan muvofiq olib boriladi.

### Nazorat savollari:

1. Erkinlik darajasidan maxrum etilishi bo'yicha bazalar nechta sinfga farqlanadi?
2. olti nuqta qoidasini tushuntiring?
3. O'rnatish bazasi sagotovkani nechta erkinlik darajasidan maxrum etadi?
4. Bazalash sxemasini to'g'ri tanlash nimalarga bog'liq?
5. Basalar birligi tamoyili bajarilsa nimaga etishamiz?
6. Basalar doyimiyligi tamoyiliga amal gilinsa nimaga erishamiz?
7. Siz tuzgan va tanlagan bazalash sxemangizda qaysi tamoyilga amal qildingiz?
8. Tanlagan bazalash oprratsion eskizingizni to'g'rilibini qurilmada tekshirib ko'rdingizmi?

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Davim J.P., Jackson M.J. Production texnology. Nova Science Publishers, Inc., 2017. <http://www.twirpx.com/file/1472025/>
2. Суслов А.Г. Технология машиностроения.- М: Машиностроение. 2018.
3. Grady J.O. System Synthesis: Product and Process Design. CRC Press, <http://www.twirpx.com/file/1432875/>. London, UK, 2010.

### **3-amaliy mashg'ulot: Mashinasozlikda innovatsion texnologiyalar.**

**Ishdan maqsad:** Mashinasozlik ishlab chiqarish sharoitlarida qo'llanayotgan zamonaviy yangi innovasion ishlov berish jarayonlari va jihozlari bilan tanishish va ularni samarali qo'llanish sohalarini aniqlash bo'yicha ko'nikmalarni egalash.

Masalaning qo'yilishi: Zamonaviy ishlov berish jarayonida kimyoviy, elektrokimyoviy, elektr manbalaridan eng yuqori energiya nuridan foydalanish imkoniyatlarini beradi. Bunda ishlov berilayotgan detallar materiallarining mexanik tarkibi uncha muhim emas, chunki materiallar tarkibida mustahkamlik, qattiqlik, egiluvchanlik ko'zda tutilmagan holda texnikaga yondoshadi. Ular elektrokimyoviy tarkibli materialarni o'z ichiga oladi.

Kimyoviy uslublarda qiyin profildagi materiallarga ishlov beriladi.

Yuqori energiya nurlari asosan lazer nurlari, elektr nurlari va plazma nurlari yordamida ishlov berish jarayonida qo'llaniladi. Ular ishlab chiqarish sanoatida muhim rol tutadi, avtomatlashtirilgan jarayonlarni boshqarish uchun yuqori moslanuvchanlikka va turli xil iqtisodiy barqarorlikka ega.

Listli metalni qirqish uchun lazer nurlari o'rninga gaz (kislorod)dan foydalanish mumkin, chunki elektr manbai tejaladi. Yuqori darajali inert gaz (azot yoki argon) temir va alyuminiyni zanglamasligi uchun xizmat qiladi.

Gazlar aralashmasining asosiy funksiyasi ishlov berilgan detallarni eritish, pishirish va qaynatishdan iboratdir.

Teshik, shponka ariqchasini ochish, metall asboblar, nometall materiallar, keramika va kompazitsion materiallarga ishlov berish lazer nurlari orqali bajariladi.

Elektr apparatlari va avtomobil sanoatida lazer nurlari bilan ishlov berish keng qo'llaniladi.

Texnologik va iqtisodiy tomondan lazer orqali kesish va shtampovka bilan ishlov berish jarayonlarida yo'l qo'yiladigan kamchilik va afzalliklar bor.

Lazer orqali kesish quyidagi avzalliklarni o‘z ichiga oladi:

- kam partiyalı;
- ishga moslanuvchanlik;
- keng diapazondagi qalinlik;
- katta qiyinchilik bilan kesiladigan materiallar va kompozitsion materiallar;
- dasturlangan qiyin geometrik ob’ektlar

Shtampovka quyidagi kamchilik va avzalliklarni o‘z ichiga oladi:

- iqtisodiy tomondan tannarxni oqlash uchun katta o‘lchamdagি detallarga ishlov berish;
- oddiyligi
- qalinligi kichik diapazondagi detallar;
- tavsiya etilgan va chegaralangan geometrik shakllar;
- tezkor ishlab chiqarish;
- detallarga ishlov berishdan keyingi moxiyat

Ikki xil bir biriga o‘xshamagan jarayonlar ishlov berishda bir- birini to‘ldiradi.

### **Topshiriqlar:**

Metallarga elektroximik, elektrifizik, nurli va hk. ishlov berish jarayonlarini asosiy turlarini mazmunini, jihozarini konstruksiyasini va ishlash prinsipini o‘rganish:

1. Metallarga ximik ishlov berish jarayoni va ularning qo‘llanish sohalari.
2. Metallarga elektroximik ishlov berish jarayoni va ularning qo‘llanish sohalari.
3. Metallarga elektrifizik ishlov berish jarayoni va ularning qo‘llanish sohalari.
4. Metallarga lazer nuri yordamida ishlov berish jarayoni va ularning qo‘llanish sohalari.
5. Metallarga suyuqlik oqimi yordamida ishlov berish jarayoni va ularning qo‘llanish sohalari.
6. Metallarga ximik ishlov berish jihozarini konstruksiyasini va ishlash prinsipi.
7. Metallarga elektroximik ishlov berish jihozarini konstruksiyasini va ishlash prinsipi.

8. Metallarga elektrofizik ishlov berish jihozarini konstruksiyasini va ishlash prinsipi.
9. Metallarga lazer nuri yordamida ishlov berish jihozarini konstruksiyasini va ishlash prinsipi.
10. Metallarga suyuqlik oqimi yordamida ishlov berish jihozarini konstruksiyasini va ishlash prinsipi.

**Ishni bajarish uchun tavsiyalar:**

1. Amaliy mashg‘ulot A4 format qog‘oziga bajariladi;
2. Nazariy qismini o‘zlashtirib, asosiy, muhim jihatlarini hisobotda ko‘rsating;
3. Detallarga zamonaviy ishlov berish jarayonlarini ishlash prinsipini, konstruksiyasini va asosiy turlarini o‘rganing;
4. Ularning asosiy afzalligi va kamchiliklarini hisobodda aks ettiring.

**Nazorat savollari:**

1. Mashinasozlik ishlab chiqarish sharoitlarida qo'llanayotgan zamonaviy yangi iishlov berish jarayonlarini nomi bilan sanab bering!
2. Mashinasozlik ishlab chiqarish sharoitlarida qo'llanayotgan zamonaviy yangi iishlov berish jihozlarining turlari va qanday vazifani bajarishi haqida gapirib bering!
3. Zamonaviy, yangi iishlov berish jarayonlari va jihozlarining afzalliklarini konkret sanab bering!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Serope Kalpakjian, **Steven R. Schmid, Hamidon Musa.** Manufacturing Engineering and Technology - Prentise Hall, USA.- 2012.1173
2. Grady J.O. System Synthesis: Product and Process Design. CRC Press, <http://www.twirpx.com/file/1432875/>. London, UK, 2010.
3. Davim J.P., Jackson M.J. Production texnology. Nova Science Publishers, Inc., 2011. <http://www.twirpx.com/file/1472025/>

## **4-amaliy mashg'ulot: Ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalar**

